



O'zbekiston Respublikasi
Ichki ishlar vazirligi nashri

Vatanga va xalqqa sadoqat bilan xizmat qilish – oliy burchimiz!

2023-yil

14-dekabr

payshanba

№ 50 (4640)

Postda Ha nocty

Gazeta 1930-yil 12-maydan chiqa boshlagan / Web-site: www.postda.uz / E-mail: info@postda.uz

OSOYISHTALIK UCHUN KAMARBASTAMIZ



Respublikamizning barcha hududlarida bo'lgani kabi, Xorazm viloyatida ham kriminogen vaziyatni yaxshilash, huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish, jinoyatchilikka qarshi kurashish, targ'ibot tadbirlari samaradorligini oshirish maqsadida «Dolzarb 40 kunlik» tezkor-profilaktik tadbir o'tkazilmoqda. Tadbir davomida jamoat tartibi hamda xavfsizligini ta'minlash, sodir etilishi mumkin bo'lgan jinoyatlarning barvaqt oldini olishga ham alohi-

da e'tibor qaratilmoqda. Ayniqsa, tungi vaqtlarda ko'chalar, xiyobonlar, turli ko'ngilochar maskanlar nazorat tartibida o'rganib chiqilib, zarur chora-tadbirlar ko'rilyapti.

Suratda: viloyat IIB JXX JTSB PPX batalyoni 2-otryad xodimlari, safdorlar — Murodbek Ismoilov hamda Davlat Abdullayevlar xizmat paytida.

ОБОДЛИККА ЮЗ ТУТГАН МАСКАН



5

OILA BAXTINI TAZIYQ YEMIRMASIN



13

XAVFSIZLIK KAMARI hayot uchun muhim



16

«PAQ-PAQ»LAR YANA BOSHLANADI(MI)?



21

▶ **ФАРМОН ВА ИЖРО**

ОЗОДЛИК НЕЪМАТИДАН КЎНГИЛЛАР ШОД



ЖИЭД Биринчи минтақавий ҳудуд 21-сонли ЖИЭҚда жазо муддатини ўтаётган хотин-қизлар орасида уч ёшга тўлмаган фарзандини тарбиялаётганлар ҳам, уйдаги кичкинтойларини ўйлаб кўз ёши тўкаётганлар ҳам бор.

Муассасага етиб келган хушxabар барчанинг кўнглини қувончга тўлдириб юборди. Чунки Ўзбекистон Республикаси Конституцияси куни муносабати билан давлатимиз раҳбарининг «Жазо муддатини ўтаётган, қилмишига чин кўнгилдан пушаймон бўлган ва тузалиш йўлига қатъий ўтган бир гуруҳ шахсларни афв этиш тўғрисида»ги фармони эълон қилинган, озодликка чиқадиганлар рўйхатида 21-сонли ЖИЭҚдан ҳам маҳкумалар бор. Кўпчилик гарчи ўзлари озодликка чиқмаётган бўлса-да, бирга жазо муддатини ўтаб, суҳбатлашиб, дардлашиб анча қадрдон бўлиб қолган қисматдошларининг озод бўлаётганидан хурсанд эди. Озод этилаётганларнинг шодлигини эса ифодалашга қалам ожиз.

Афв этилган шахсларнинг 34 нафари асосий жазодан тўлиқ озод этилди, 249 нафари жазони ўташдан муддатидан илгари шартли озод қилинди, 6 нафарининг озодликдан маҳрум этиш жазоси енгилроқ жазо билан алмаштирилди. Шунингдек, 45 нафар шахсга тайинланган озодликдан маҳрум этиш жазосининг муддатлари қисқартирилди.

Озодликка чиқадиган шахсларнинг яшаш манзилларида уларни ишга жойлаштириш, жамиятга мослашиш, зарур бўлса саломатлигини тиклашларига кўмаклашиш учун масъул идораларга тегишли вазифалар қўйилди.

Бугун бу фармон туфайли дийдор қувончини ҳис этадиган, соғинч ва ҳижрондан тўлган қалблар ором оладиган хонадонлар кўп. Ана шу қувончларга шерик бўлиш, таассуротларни қалбан ҳис этиш мақсадида жазони ижро этиш муассасаларида бўлди.

Биринчи минтақавий ҳудудда жойлашган муассасаларда кўплаб фуқаролар ҳам бўлишган. Бу ерда кимдир отасини, кимдир ўғлини, яна кимдир ака-укасини, дўстини кутмоқда. Юракларда жўш ураётган ҳис-ҳаяжон кўзларда акс этмоқда. Дарвозалар очилиб, озод этилганлар яқинлари бағрига отилишди.

– Ўғлим ёшлик қилиб, жиноятга қўл урди, – дейди кекса онахон биз билан суҳбатда. – Озодликдан маҳрум этилган пайтда шундай дард чекдимки, энди у бағримга қайтгунича дунёдан ўтиб кетсам керак, деб кўрқардим. Учрашувга келганимда боламини қилмишидан пушаймонлигини, муассасада ҳунар ўрганаётганини, озодликка чиқиб, ҳалол яшашни ният

қилаётганини кўрардим. Бир мўъжиза рўй берса-ю, болагинам тезроқ бағримга қайтса, деб дуо қилардим. Бугун мен кутган мўъжиза рўй берди. Давлатимизнинг инсонпарварлик, бағрикенглик тамойиллари асосида болам озодликка чиқди. Мен қатори фарзандини бағрига босаётган кўплаб муштипар оналар номидан Юртбошимизга раҳмат айтаман.

– Мен гиёҳвандлик воситалари савдоси билан боғлиқ жиноят содир этиб, озодликдан маҳрум этилган эдим, – дейди 14-сонли ЖИЭҚдан озод этилаётган Афғонистон фуқароси Абдулрасул Назари. – Ўзбекистон Президентининг афв этиши, мен учун кутилмаган совға бўлди.

Очиғини айтсам, маҳкумлик ҳам мен учун қайсидир маънода фойдали бўлди. Чунки муассасада ўқишни, ёзишни ўргандим, бундан ташқари тикувчилик ҳунарини эгалладим. 7 декабрь куни туғилган куним эди. Шундай қувончли куним учун озодлик совға бўлди, десам, муболаға бўлмайди. Энди оилам бағрида тинч-тотув яшайман. Беш нафар фарзандим бор, уларнинг тарбияси билан шуғулланаман.

Билиб-билмай содир этган жинояти учун олти йил муддатга озодликдан маҳрум этилган Жаҳонгир Холмирзаев ҳам бугун 47-сонли манзил-колониясидан озодликка чиқди. У жазо муддатининг қарийб икки йилга яқинини жазони ижро этиш муассасасида, оиласидан олисда ўтказди. Бугун Андижон вилояти томон йўл оларкан, ҳалол меҳнат қилишни, фарзандлари ёнида бўлиб, уларни ҳалол, ватанпарвар инсонлар қилиб тарбиялашни дилига тугди.

Бир пайтлар ана шундай инсонпарварлик сабаб афв этилган шахсларнинг кўпчилиги бугун турли соҳаларда фаолият юритиб, аввало, ўзига, қолаверса, халқимизга фойда келтириб яшайпти. Хато йўлга қадам қўйиб, бошидан ўтказган оғир дамлари ҳақида ёшларга гапириб, панду насиҳатлар қилаётганлар ҳам бор. Таассуфки, имкониятдан тўғри хулоса чиқариш ўрнига, қайта жиноят содир этиб, яна озодликдан маҳрум этилганлар ҳам учраши мумкин. Умидимиз, Конституция куни муносабати билан афв этилган шахслар орасидан ҳеч бири асло иккинчи тоифадан бўлмайди.

Шаҳризод ШОКИРОВ,
катта лейтенант.

Бугун Қорақалпоғистон Республикасининг давлат байроғи қабул қилинган кун



«Қорақалпоғистон Республикасининг Давлат байроғи тўғрисида»ги Қонун 1992 йил 14 декабрда Қорақалпоғистон Республикаси Жўқорғи Кенгесининг сессиясида қабул қилинган.



Ибройим ЮСУПОВ,
Ўзбекистон Қаҳрамони,
Ўзбекистон ва
Қорақалпоғистон халқ
шоири.

ВАТАН

Сен, эй амри вожиб,
олий ҳукмдор,
Не қудратсан,
қалбга ҳокимлик этган?
Биз тугул, не улғ,
доно шоирлар
Сенинг таърифингни
айтолмай кетган...

Бағрингда қанча халқ –
мардонлар бор,
Улар гурурини
кўтаролмас тоғ.
Бироқ сенсиз улар –
қанотсиз шунқор,
Қайноқ меҳри сенга
бахшида ҳар чоқ.

Меҳнат ва ақлдан
обрўси баланд,
Улуғлар яшайди
бағрингда омон.
Бирор номард сенга
берар бўлса панд,
Чақирсанг, «лаббай»
деб келар шу замон.

Бири отдан тушиб,
бири – тахтидан,
Гуноҳкор болангдай
корингга ярар.
«Ватан» деса олов
тўсмас шахтидан,
Ўққа киприк қоқмай
типпа-тик қарар!



YUKSAK MUKOFOT SOHIBLARI

MEHNAT YERDA QOLMAS,
OLTIN — YO'LDA

Viloyat IIB YHXB shimoliy-mintaqaviy hudud yo'l-patrul xizmati inspektori, serjant Abdullo Yusupov Uzun tumanidagi chegara posti yaqinida xizmat vazifasini bajarayotgandi. Inspektor «Tiko» rusumli avtomashinani to'xtatib, haydovchining hujjatlarini tekshirishga kirishdi. Ammo negadir haydovchi emas, mashina ichidagi yo'lovchi bezovtalana boshladi. Hushyor inspektor buni darrov payqadi, biroq sezdirmaslikka urinib, vaqtni cho'zish uchun haydovchini so'roqqa tuta boshladi. Bu orada IIB xodimlari ham yetib kelishdi va yo'lovchi qidiruvdagi shaxs ekani aniqlanib, qo'lga olindi.

Qariyb 18 yildan beri shu sohada xizmat qilib kelayotgan qahramonimiz xizmat vazifasini bajarish chog'ida ko'plab qidiruvdagi, shuningdek, yo'l-transport hodisasini sodir qilib, voqea joyidan qochib ketgan shaxslarni aniqlashda jonbozlik ko'rsatmoqda.

– Sho'rchi, Denov, Oltinsoy, Uzun, Sariosiyo tumanlaridagi yo'llarda xavfsizlikni ta'minlash, yo'l-transport hodisalarining

«Sodiq xizmatlari uchun» medali bilan taqdirlandi. Bu esa qahramonimiz uchun kutilmagan sovg'a bo'ldi.

– Ichki ishlar vazirligida o'tkazilgan tantanali tadbirda medalni ko'ksimga taqishganida o'z kasbimdan faxrlanib ketdim. O'z ishimni birinchi o'ringa qo'yib, unga mas'uliyat bilan yondashishimda otamning o'g'itlari katta rol o'ynaydi.



oldini olish asosiy vazifamiz sanaladi, – deydi serjant Abdullo Yusupov. – Kontingent katta, shu bilan birga, chegara hududlarda xavfsizlikni ta'minlash lozimligi uchun mas'uliyat ham shunga yarasha. Berilgan topshiriqlarni sidqidildan ado etishga harakat qilyapmiz.

Zimmasidagi vazifani mas'uliyat va fidoyilik bilan uddalayotgan serjant Abdullo Yusupov kasbdoshlari orasida ham hurmat qozongan. Mehnatlari zoye ketmay, shu yil 25 oktyabr – Ichki ishlar organlari xodimlari kuni munosabati bilan u

Ana shu tarbiya mahsuli hayot tarzimga ko'chib, bugun mana shunday yuksak mukofotga sazovor bo'lganimni xayolimdan o'tkazarkanman, avvalo, otamdan minnatdor bo'ldim, – deydi Abdullo Yusupov.

Mehnat yerda qolmas, oltin – yo'lida, deydi donolar. Chindan ham chekilgan mashaqqatlar kishining qadr-qimmatini oshiribgina qolmay, taqdir uni qahramonimiz kabi yaxshi tuhfa bilan ham siylaydi.

Feruza RAHMONQULOVA,
o'z muxbirimiz.

Surxondaryo viloyati.

Buxoro viloyatining eng chekka va chegara hududi hisoblangan Olot tumani IIB profilaktika katta inspektori, mayor Azizbek Asadov yigirma yildirki fuqarolar tinchligi va osoyishtaligi yo'lida kamarbasta bo'lib kelmoqda.



Faoliyatini viloyat IIB HOOBga bevosita bo'ysunuvchi Voyaga yetmaganlarga ijtimoiy-huquqiy yordam ko'rsatish markazida safdor xodimlikdan boshlagan Azuzbek Asadov 2008-yili Olot tumani IIB Navbatchilik qismida navbatchi yordamchisi lavozimida xizmatini davom ettirdi.

Dastlab tumandagi to'rt mahallani qamrab olgan «Bahoriston» qishloq fuqarolar yig'inida yashovchi 12 ming nafardan ortiq aholining osoyishtaligini ta'minlashga bosh-qosh bo'ldi, hududdagi tezkor vaziyatning barqarorligini mustahkamlashga erishdi. Natijada aholining yosh profilaktika inspektoriga bo'lgan ishonchi oshdi. Fuqarolar oilaviy nizolarni, qo'nu qo'shnilar kelishmovchiliklarini tuman ichki ishlar bo'limiga bormay, shu yerning o'zida hal etadigan bo'ldi. Jinoyatchilik va huquqbuzarlik holatlari keskin kamaydi.

2020-yildan boshlab lavhamiz qahramoni «O'zbekiston» mahalla fuqarolar yig'inida xizmatini davom ettirdi, shu bilan birga atrofidagi to'rtta mahallada faoliyat ko'rsatayotgan profilaktika inspektorlari ning ishini nazorat qilib bordi. Uning ko'p yillik tajribasi, yuqori kasbiy mahorati hududda osoyishtalikni ta'minlash, huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olishda qo'l kelmoqda. Shu bois ham uch yildan ortiq vaqt mobaynida mahallaga birorta ham jinoyat sodir etilishiga yo'l qo'ymay uni «yashil hudud»ga aylantirdi.

– Azizbek ilgari qo'shni «O'zbekiston» mahallasida profilaktika katta inspektori bo'lib ishlagan payti ham mahallamizga

tez-tez kelib, profilaktika inspektorimiz Sunnatjon Qo'chqorovga yo'l-yo'riq ko'rsatib ketardi. Mahallamizda sodir etilgan ikkita o'g'rilik jinoyatini ham ular birgalikda ochishdi. Qolaversa, aholimiz 735 nafarni tashkil etgani bilan hududimizda o'nga yaqin neft korxonasi va toifalangan nasos stansiyalari joylashganligi sababli, ishchilarning aksariyati qo'shni mahalla hamda tumanlardan kelib ishlashadi. Tabiiyki, har xil noxush holatlar, kelishmovchiliklar bo'lib turadi. Ularni murosaga keltirishda tajribali xodim kerak edi. Shular inobatga olinib, Azizbek Asadov mahallamizda xizmat olib borishga tayinlandi, – deydi «Qirlishon» mahalla fuqarolar yig'ini raisi Erkin Gadoyev.

Xalqimizda «Mehnat qilgan elda aziz» degan maqol bor. Mayor Azizbek Asadov ham ko'p yillik samarali xizmati uchun 2020-yilda davlatimizning «Mehr-saxovat» ko'krak nishoni bilan taqdirlangan bo'lsa, bu yil ichki ishlar organlari xodimlari kuni arafasida Prezidentimiz farmoniga binoan, «Sodiq xizmatlari uchun» medali bilan mukofotlandi.

Lavhamiz qahramoni nafaqat xizmatda hamkasblariga o'rnak, balki oilada ham ibratli otadir. Umr yo'ldoshi Muhayyoxon bilan birga uch farzandni el-yurt koriga yaraydigan insonlar qilib tarbiyalashmoqda. O'z ishining fidoyisi bo'lgan qahramonimizning mardona xizmatlari hali ko'p bor tilga olinishiga aminmiz.

Mirzoqul AHADOV,
o'z muxbirimiz.

Buxoro viloyati.

★ Психологическая служба

УСТОЙЧИВОСТЬ К СТРЕССАМ — КАЧЕСТВО ОБЯЗАТЕЛЬНОЕ



Общеизвестно, что коэффициент полезного действия человека во многом зависит от психологического настроя.

Сотрудники органов внутренних дел по роду службы ежедневно сталкиваются со специфическими ситуациями, когда требуется выдержка, хладнокровие и самоконтроль.

— Они стоят на страже прав и интересов граждан, однако в большинстве случаев круг их общения — склонные к преступлениям, имеющие проблемы с законом лица, — говорит главный психолог службы духовно-просветительской работы и кадрового обеспечения УВД Ферганской области майор Жахонгир Эрназаров. — Даже в самых крайних случаях сотрудникам органов внутренних дел следует помнить, что они олицетворяют собой закон и правопорядок. Поэтому нужно строго следовать предписаниям, спокойно разъяснять нарушителям суть и последствия деяний, применять установленные законом меры.

Психологи УВД области помогают сотрудникам со-

хранять «внутреннее равновесие». В этих целях организовываются тренинги, с личным составом проводятся беседы, индивидуальная консультативная работа.

Включение психологов в состав приемных и аттестационных комиссий при областном управлении положительно сказывается на отборе кандидатов в органы внутренних дел. Были проведены тестовые испытания и индивидуальные беседы с 408 сотрудниками, рекомендованными на высшие должности.

— В определении психологического состояния личного состава большое значение имеет психодиагностика, — говорит старший психолог-полиграфолог лейтенант Исмоилжон Бегжонов. — В течение года мы провели несколько таких обследований. Выявлены степень коммуникативности, темперамент, а также показатели по «равен-матрице». Каждому сотруднику, прошедшему психодиагностику, даны рекомендации и оказана методическая помощь.

Абдувосит СИДИКОВ,
соб. корр.
Ферганская область.

Подростки мобильны, восприимчивы ко всему новому и интересному. Однако нередко случаи, когда их активность не направляется в нужное русло, досуг сводится к пустому времяпрепровождению.

УБЕРЕЧЬ ОТ ОШИБОК

Жизненные ситуации бывают разные. Кто-то попал в плохую компанию, у кого-то неполная семья или у родителей «нет времени» заниматься детьми. А ребятам нужно здоровое общение, положительный пример, ведь они еще не совсем ориентируются в жизни. Тут и приходит на помощь инспектор-психолог по вопросам несовершенно-

предлагается интерпретировать содержание сюжетных картинок, завершить незаконченные предложения, дать толкование неопределенных очертаний и т. п. Проблемы «проецируются» в ответах несовершеннолетнего. Затем следует психокоррекционная работа.

Подростки, склонные к правонарушениям, как правило, имеют высокий уровень тревожности, полярную само-



летних, задача которого найти индивидуальный подход к проблемному подростку. Инспектор-психолог не просто сотрудник ОВД, а прежде всего педагог, наставник.

По роду службы постоянно проводятся беседы с несовершеннолетними, учитывая их личностные особенности, темперамент. При этом применяю ряд диагностических методик, в том числе «Кактус» — для определения уровня агрессии, «Моя семья» — с целью характеристики внутрисемейных отношений. Данные методики предусматривают использование так называемых «неопределенных стимулов», которые подросток должен дополнить, развить. К примеру,

оценку, низкий уровень коммуникативных навыков, для них характерно внутреннее напряжение. На устранение этих проблем и направлены психолого-профилактические тренинговые упражнения.

Наша цель — помочь ребятам, убереечь от ошибок, которые могут потом негативно повлиять на их дальнейшую жизнь. А если проступок уже совершен — постараться все исправить.

Нигина АХМЕДОВА,
инспектор-психолог по вопросам
несовершеннолетних
УКД ОВД Юнусабадского района
г. Ташкента,
лейтенант.

БУДЬТЕ ОСТОРОЖНЫ!



Снег приносит много радости детворе, но для участников дорожного движения создает немало сложностей.

В снегопад ухудшается видимость, затрудняется движение.

В такую погоду будьте особенно осторожны. Перед тем, как ступить на проезжую часть, внимательно осмотритесь и прислушайтесь, нет ли приближающегося транспорта.

Снегопад создает проблемы не только пешеходам,

но и водителям. Водитель в этой ситуации часто едет «по памяти». Чтобы не создавать непредвиденных и опасных ситуаций, неукоснительно соблюдайте Правила дорожного движения.

В неблагоприятных погодных условиях сотрудники добросовестно и ответственно выполняют свои обязанности на улицах, перекрестках, перед школами и детскими садами.

Помните, безопасность на дороге зависит от каждого!



БУНЁДКОРЛИК

ОБОДЛИККА ЮЗ ТУТГАН МАСКАН

Жорий йилнинг иккинчи ярмида Жиззах вилоятининг Зафаробод туманидаги «Самарқанд» маҳалла фуқаролар йиғинида «Обод маҳалла» дастури доирасида кенг кўламли бунёдкорлик ишлари амалга оширилди. Чунончи, фуқаролар йиғини биноси ва профилактика инспектори учун хизмат уйи бунёд этилди.

— Илгари маҳалланинг 5 нафар фаоли шароитлари ҳаминқадар битта хонада ишлардик, — дейди ҳудуд профилактика инспектори, капитан Фазлиддин Янгибоев. — Энди ҳар биримиз замон талабларига мос тарзда жиҳозланган алоҳида хона билан таъминландик. Қолаверса, хизмат уйи мен ва оиламни ижарада яшаш ташвишидан қутқарди. Булар ҳаммаси зиммамдаги вазифаларни бажаришни ҳар жиҳатдан қулайлаштиради.

Таъкидлаш керакки, ҳудудда «Обод маҳалла» дастурининг муваффақиятли амалга оширилишига 3-сектор ишчи гуруҳи салмоқли ҳисса қўшди. Жумладан, иккита светофор ўрнатилиб, уч километр йўлга шағал ётқизилди. 105 та эскирган симёғоч бетон устунларга алмаштирилиб, зовур устига иккита кўприк қурилди. 350 метрлик бетон ариқлар ётқизилиб, томорқаларни оқар сув билан таъминлаш чоралари кўрилди.

Бундан ташқари, ички ишлар органлари ходимлари ҳашар уюштириб, 2,5 гектар майдонга 3 минг 200 туп арча, павлония, олма ва олча кўчатлари ўтқаздилар. Осойишталикни таъминлаш мақсадида 12 та кузатув камералари ҳамда 43 та ёритгич ўрнатилди. Қисқаси, юртимизда яна бир маҳалла обод бўлди.

Алижон АБДУСАТТОРОВ,
ўз мухбиримиз.

Жиззах вилояти.



ФИДОЙИ ХОДИМЛАР

КАСБИМНИ АРДОҚЛАЙМАН

— дейди капитан Мансуржон Муродов

Капитан Мансуржон Муродов уч йилдирки, Ургут туманидаги «Мурод қишлоқ» маҳалла фуқаролар йиғинида профилактика инспектори лавозимида фаолият олиб бормоқда. Ушбу 110 гектарга тенг чегара ҳудудида 3400 дан зиёд аҳоли истиқомат қилади, бу ердаги уйлар бир-биридан жуда узоқда жойлашган. Бу эса, албатта, ходимдан зиммасидаги хизмат вазифасига ниҳоятда зийраклик билан эътибор қаратишни тақозо этади.

Бир сўз билан айтганда, ўз хизмат вазифаларини фидойилик билан бажараётган инспекторга ҳудуд аҳолисининг ишончи ортган. Бу маҳалла аҳлининг Мансуржон билан турли масалаларда ҳаммаслаклигида яққол кўринади.

Капитан Мансуржон Муродов 2017 йилда Самарқанд давлат университетининг жисмоний тарбия факультетини тамомлаб, шу йили ички ишлар органларида хизмат қила бошлади. Ўша пайтда спорт усталигига номзод олийгоҳ битирувчисини Пастдарғом туманидаги «Сазаған» маҳалласига профилактика инспектори этиб тайинлашди. Бу ерда у фуқаролар билан ишлаш бўйича илк кўникмаларга эга бўлди. Ёш, аммо шижоатли инспекторни

2020 йилда тоғли Ургут ҳудудига кўчиришди. Ҳозирда ИИБ Академиясида сиртдан таҳсил олмоқда. Яқиндагина бўлиб ўтган «Энг яхши профилактика инспектори» кўриктанловининг вилоят босқичида



фахрий учинчи ўринни эгаллаган М. Муродов биз билан суҳбат чоғида ўз ҳаётини севимли касбисиз тасаввур қила олмаслигини, бу касб серқирра, қизиқарли ва инсонга ёрдам беришга қаратилганлиги учун уни яхши кўришини эътироф этди.

— Машаққатли касбни танлаганимни яхши биламан, — дейди

капитан. — Ҳозирда менга бириктирилган ҳудудда жиноят содир этишга мойил 50 нафар фуқаро истиқомат қилади. Йил бошидан буён уларнинг барчаси профилактик ҳисобга олинган бўлса, ҳо-

зирда 18 нафари тузалиш йўлига ўтганлиги сабабли муддатидан аввал ҳисобдан чиқарилди.

Фуқароларни қабул қилиш ва ҳужжатлар билан ишлаш қаҳрамонимиз олиб бораётган кундалик фаолиятнинг бир қисми, холос. У текширади, ҳолатни ўрганади ва маиший низоларни ҳал қилади.

Капитан Мансуржон Муродов ўз фаолиятида хотин-қизлар ҳуқуқларини ҳимоя қилишга ҳам алоҳида эътибор қаратади. Хусусан, жорий йил бошидан буён таъйин ва зўравонликка учраган 22 нафар аёлга ҳимоя ордерлари берилди. Нотинч оилаларнинг муаммоларини ўрганиш чоғида уларнинг асосий муаммоси ишсизлик экани маълум бўлди. Муаммони ҳал қилиш ва оила фаровонлигини ошириш мақсадида ўн нафар фуқаро иш билан таъминланди. Шунингдек, 11 нафар хотин-қизга имтиёзли кредитлар ажратилди. Тўрт нафарига тадбиркорлик фаолиятини йўлга қўйиши учун субсидия асосида тикув машиналари олиб берилди.

Ижтимоий қўллаб-қувватлаш мақсадида нотинч оилалардаги 11 нафар фуқаро соғломлаштириш учун санаторийга, тўрт нафар фуқаро вилоят руҳий касалликлар шифохонасига жўнатилди, спиртли ичимликлар истеъмолига муккасидан кетган беш киши вилоят наркология диспансерида даволаниб чиқди.

Бир сўз билан айтганда, ўз хизмат вазифаларини фидойилик билан бажараётган инспекторга ҳудуд аҳолисининг ишончи ортган. Бу маҳалла аҳлининг Мансуржон билан турли масалаларда ҳаммаслаклигида яққол кўринади.

Замира БОЛТАЕВА,
ўз мухбиримиз.

Самарқанд вилояти.



★ Лучшие в своем деле

КОГДА ПРОФЕССИЯ – ПРИЗВАНИЕ

Сотрудники органов внутренних дел отвечают за общественный порядок и безопасность. В любую минуту они готовы прийти на помощь людям.

■ Республика Каракалпакстан

Заместитель командира батальона ППС СОБ МВД Республики Каракалпакстан, командир отряда обеспечения безопасности при проведении общественно-политических, культурно-массовых мероприятий майор Абиу Торемов уроженец Караузякского района. После окончания школы он поступил на филологический факультет Каракалпакского государственного университета им. Бердаха. Молодой специалист некоторое время преподавал в колледже. Службу в системе органов внутренних дел начал в 2009 году в качестве рядового сотрудника ППС.

Абиу Торемов – требовательный к себе и подчиненным командир отряда. Не раз его ставили в пример сослуживцам. Благодаря организаторским способностям он обеспечивает успешное проведение массовых мероприятий. Недавно был отмечен нагрудным знаком «Ватан фидойиси» Жокаргы Кенеса Каракалпакстана.

– В последнее время укреплению материально-технической базы органов внутренних дел, социальным вопросам уделяется боль-



На снимке: Председатель Жокаргы Кенеса Республики Каракалпакстан Аманбай Орынбаев во время вручения нагрудного знака «Ватан фидойиси».

шее внимание, – отмечает майор А. Торемов. – Одной из мер в этом направлении стало предоставление дополнительных баллов детям сотрудников при поступлении в высшие образовательные учреждения. Благодаря данной льготе старший сын, Айбек, поступил на

факультет иностранной филологии университета. Такая забота государства о сотрудниках органов внутренних дел и членах их семей стимулирует к образцовой службе, еще большей самоотдаче.

Азамат ПИРНИЯЗОВ,
соб. корр.



14 ДЕКАБРЯ
1992 ГОДА БЫЛ
ПРИНЯТ ЗАКОН
«О ГОСУДАРСТВЕННОМ
ФЛАГЕ РЕСПУБЛИКИ
КАРАКАЛПАКСТАН»

Государственный флаг Республики Каракалпакстан представляет собой прямоугольное полотнище, состоящее из трех горизонтальных полос голубого, желтого и зеленого цветов. Желтую полосу отделяют белые и красные каемки.

Голубой цвет флага является символом воды и весны. Желтый указывает на то, что большая часть Каракалпакстана состоит из пустынь. Зеленый цвет является признаком обновления природы, духовности, доверия. Полумесяц соответствует многовековой традиции народа, образ пяти звезд является символом жизни и доверия пяти самых древних городов Каракалпакстана.



■ Самаркандская область

У каждого сотрудника уголовного розыска свой путь к достижению жизненной цели – стать оперативником. Для майора Элдора Умаралиева служба в правоохранительных органах была осознанным выбором.

Элдор Умаралиев родился и вырос в семье педагогов в Пастдаргомском районе.

В 2012 году был слушателем Высших курсов по подготовке сержантского состава Академии МВД Узбекистана. Начал службу в ОВД в должности командира группы отряда на железнодорожной станции «Самарканд».

– Одним из первых моих наставников был подполковник Бахтиёр Юсупов, – начинает диалог наш собеседник. – Этот человек мотивировал не сдаваться на середине пути, он не просто учил тонкостям профессии, но, давая советы, вселял уверенность, что все получится.



На снимке: майор Э. Умаралиев (слева) и заместитель начальника по духовно-просветительской работе Управления майор А. Абдурасулов.

Порой бывало нелегко справиться с какой-либо задачей, тогда на помощь приходил наставник.

Сегодня за плечами у Элдора Умаралиева 11 лет службы. Он занимал различные должности в транспортном управлении, а последние два года возглавляет отдел уголовного розыска. Направление работы не только сложное, но и очень ответственное.

Рассказывая о статистике правонарушений, майор Э. Умаралиев отметил, что в последнее время встречаются преступления, связанные с незаконным оборотом наркотиков, подделкой документов, кражи и кибермошенничество.

На вопрос, какими качествами должен обладать оперативный сотрудник, собеседник ответил: быть всегда готовым к работе в условиях высоких нагрузок, к нестандартным ситуациям.

Замира БАЛТАЕВА,
соб. корр.





INSON QADRI UCHUN

«OLTIN BOSHOQ» obod maskanga aylandi

Qashqadaryo viloyati 3-sektori rahbari tashabbusi bilan mutasaddi tashkilotlar hamkorligida Mirishkor tumanidagi «Oltin boshqoq» mahallasi infratuzilmasi to'liq qaytadan yangilanib, ko'rkam qiyofa kasb etdi. Shu munosabat bilan o'tkazilgan tantanali tadbirda viloyat hokimi boshchiligidagi sektor rahbarlari, mutasaddi tashkilotlar vakillari, mahalla oqsoqollari, faollari hamda fuqarolar ishtirok etdi.

Shu kunga qadar 512 ta xonadonda istiqomat qilayotgan aholi uchun mahalla fuqarolar yig'ini binosi yo'q edi. Shu bois «mahalla yettiligi» faoliyatiga moslashtirilgan yangi mahalla binosi qurib, foydalanishga topshirildi. Muqobil energiya manbalaridan foydalanish maqsadida binoga quyosh panellari o'rnatildi.

Besh kilometrlik ichki yo'llarga tosh-shag'al yotqizilib, 1,3 kilometrda piyodalar yo'lakchasi barpo qilindi, quyoshdan quvvat oluvchi tungi chiroqlar o'rnatildi. Shu bilan birga, aholi xonadonlarini elektr energiyasi bilan ta'minlash maqsadida 185 ta temir-beton ustun o'rnatildi, 5 kilometrlik yangi liniyalar tortildi, 2 ta yangi transformator o'rnatilib, 3 tasi ta'mirlandi.

Hududdagi qishloq vrachlik punkti binosi ham joriy ta'mirlangach, «Oltin boshqoq» oilaviy shifokorlik punkti sifatida ish boshladi. 120 o'rinli maktab atrofi devor bilan o'ralib, 11 ta xona joriy ta'mirlandi. Shuningdek, maktabda yangi issiqlik tizimi ishga tushirildi.

Mahallada bugunga qadar yo'lovchi kutish bekati mavjud bo'lmagan. Dastur doirasida savdo do'koni va yo'lovchi kutish qismini o'z ichiga olgan yangi bekat qad rostladi. Imtiyozli kredit hisobidan yangi tikuv hamda non va non mahsulotlari ishlab chiqaruvchi sexlar tashkil etilib, bir guruh xotin-qizlar ish bilan ta'minlandi. Qolaversa, «Workout» maydonchasi, sun'iy qoplamali minifutbol o'yingohining foydalanishga topshirilishi, ayniqsa, yoshlarni juda xursand qildi.

«Yashil makon» umummilliy loyihasi doirasida mahalladagi 3 gektar maydonda «Ichki ishlar bo'limi bog'i» barpo etilib, 4 ming dona daraxt ko'chatlari ekildi.

«Inson qadri uchun» tamoyili asosida amalga oshirilgan xayriy ishlardan mahalla ahli benihoya mamnun bo'ldi.

Sodiq RAHIMOV,
o'z muxbirimiz.

Qashqadaryo viloyati.



Uchtepa tumani IIOFMB

FIDOYI XODIMLAR



Poytaxtimizning Uchtepa tumani IIOFMB JTSP PPX 1-otryadida yurt tinchligini asrashni sharaflil vazifa deb bilgan ko'plab osoyishtalik posbonlari fidoyilik bilan xizmat qilib kelmoqda. Ularning aksariyati yosh xodimlar ekani jamoada g'ayrat-shijoat va tinimsiz izlanish bardavomligini ta'minlashda muhim omil bo'layotir.

...Joriy yilning 1-noyabr kuni soat taxminan 10:30 larda tumanning 12-mavzesida joylashgan «Makro» supermarketi oldida turgan ikki fuqaro birinchi bosqichga xizmatga jalb qilingan PPX 1-otryad xodimlari – safdorlar Abdurahmon Ashirov, Orif Qo'ldoshev va Oybek Isambayevda shubha uyg'otdi. Voqea joyiga yetib kelgan tergov-tezkor guruhi a'zolari va xolislar ishtirokida gumon qilinuvchi tekshirilganda unung yonida giyohvandlik moddasi borligi aniqlandi.

Bu kabi misollarni PPX xodimlari faoliyatidan yana ko'plab keltirish

mumkin. Sohaviy xizmat xodimlari tomonidan tuman hududi xavfsizligini ta'minlash maqsadida joriy yilning o'tgan davrida maqsadsiz yurgan 41668 nafar shaxsning 9841 nafari ma'muriy huquqbuzarlik sodir etgani, 575 nafarining ish va yashash joyi noaniq bo'lgani aniqlandi. Bundan tashqari, mayda bezorilik uchun 639 nafar, jamoat joyida spirtli ichimlik ichgani uchun 2659 nafar shaxsga nisbatan tegishli choralar ko'rildi.

Ma'lumot o'rnida aytish lozimki, soha xodimlari jinoyat va huquqbuzarliklarning oldini olishdan tashqari, qidiruvdagi shaxslarni aniqlashda ham ibrat ko'rsatishyapti. O'tgan vaqt mobaynida ular tomonidan 81 nafar qidiruvdagi shaxs aniqlanib, ushlangani buning tasdig'idir.

Suratda: tuman IIOFMB JTSP PPX 1-otryadi xodimlari – safdorlar Orif Qo'ldoshev va Husniddin Qilichev xizmat jarayonida.

«YASHIL» TOIFADAGI MAHALLALAR

Tumanning 26-mavzesida joylashgan «Shirin» mahalla fuqarolar yig'inida hudud osoyishtaligini ta'minlash maqsadida olib borilayotgan keng qamrovli tadbirlar ijobiy samarasini bermoqda.

– Hamjihatlik, hamkorlik va o'zaro ishonch bor joyda yuksalish bo'ladi, – deydi mahalla fuqarolar yig'ini raisi Guljahan Hasanova. – Bugun mahallalarda aholi farovonligini oshirish borasida juda katta ishlar olib borilayotganini barchamiz ko'rib turibmiz. Quvonarli tomoni, mavjud imkoniyatlardan biz ham unumli foydalanib kelyapmiz. Eng muhimi, mahallamiz tinch-osoyishta. Shu bois «yashil» toifaga kiritilgan.

Kezi kelganda ta'kidlash lozimki, zamonaviy mahalla fuqarolar yig'ini

binosida mahalla fuqarolar yig'ini raisi, profilaktika inspektori, yoshlar yetakchisi, hokim yordamchisi va xotin-qizlar faoli namunalil faoliyat olib borishi uchun barcha sharoitlar muhayyo. Axborot-resurs markazida esa turli mavzulardagi adabiyotlardan tashqari, mamlakatimizda chop etiladigan vaqtli matbuot nashrlarini ham mutolaa qilishingiz mumkin. Mahalla hududini ko'zdan kechirar ekansiz, zamonaviy bolalar o'yingohlari, ichki asfalt yo'lakchalar ham e'tiboringizdan chetda qolmaydi.

Profilaktika katta inspektori, mayor Tolmas Shayqulov, yoshlar yetakchisi Abduaziz Abdujabborov, xotin-qizlar faoli Dilorom Umarova va boshqa faollarning hamjihatligi sabab «yashil» toifadagi mahalla har jihatdan boshqa mahallalarga namuna bo'lib kelmoqda.



USTOZ VA SHOGIRD

Ichki ishlar organlarida xizmatni boshlagan yosh xodim soha sirlarini o'rganib, yangi ishga moslashishi biroz qiyin. Shu bois, unga kasb sirlarini o'rgatib, kelgusida o'z ishining malakali mutaxassisi bo'lishi uchun murabbiy biriktiriladi. Murabbiy, albatta, o'zining bilimi, insoniy fazilatlaril, kasbiga mas'uliyati bilan har tomonlama shogirdiga namuna bo'lmog'i lozim.

Tuman IIOFMB 2-sonli IIB surish-tiruv guruhi surishtiruvchisi, leytenant Gavharoy Abdumansurova IIV Akademiyasini muvaffaqiyatli bitirib, ilk xizmat faoliyatini boshlaganida unga tuman IIOFMB huzuridagi Tergov bo'limi katta tergovchisi, podpolkovnik Baxtiyor Abdullayev murabbiy etib biriktirildi.



Podpolkovnik B.Abdullayev shogirdiga jinoyatlarni tergov qilish davomida inson sha'ni, qadr-qimmatil har doim birinchi o'rinda turishi

kerakligini uqtirib keladi. Gavharoy yil boshidan buyon firibgarlik, o'g'rilik, hujjatlarni qalbakilashtirish, bezorilik, tan jarohati yetkazish bilan

bog'liq ko'plab jinoyatlarni sifatli tergov qilib, sud hukmiga topshirdi. Shuningdek, u fuqarolar bilan muomala qilish, jinoyat ishi bo'yicha hujjatlarni o'z o'rnida qo'llash, kasbga doir bilim va malakasini muttasil oshirib borish singari zimmasidagi vazifalarni mas'uliyat bilan bajarib, ustozining ishonchini oqlab kelmoqda.

G. Abdumansurova bo'sh vaqtida kitob o'qish, chet tillarini o'rganish, sport mashg'ulotlari va tikuvchilik bilan shug'ullanadi. Joylarda, xususan, ta'lim maskanlarida bo'ladigan uchrashuvlarda yoshlarni turli fan va sport to'garaklariga jalb etish orqali bandligini ta'minlash ko'plab jinoyat va huquqbuzarliklarning oldini olishda muhim o'rin tutadi deb hisoblaydi...

Sherzod ABDUSAMADOV,
o'z muxbirimiz.

Toshkent shahri.



SOHAVIY XIZMATLARDA

XAVFSIZLIKNI TA'MINLASH –
ENG MUHIM MASALA

Qoraqalpog'iston Respublikasi Transportda xavfsizlikni ta'minlash boshqarmasi hamda uning tarkibiy bo'linmalarining transport infratuzilmasi obyektlarida jinoyatchilikka qarshi kurashish, huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish, jamoat tartibini saqlash, yo'lovchi va yuk poyezdlarining xavfsiz harakatlanishini ta'minlashda munosib hissasi bor.

– Boshqarmamizga qarashli «Qoraqalpog'iston», «Bo'ston», «Xo'jayli», «Miskin», «Nukus» temiryo'l bekatlaridagi bo'linmalarining xizmat ko'rsatish hududi umumiy uzunligi 866,7 kilometrni tashkil etadi, – deydi Qoraqalpog'iston Respublikasi Transportda xavfsizlikni ta'minlash boshqarmasi boshlig'ining o'rinbosari, podpolkovnik Makset Jangirov. – Joriy yilning o'tgan 11 oyi davomida xodimlarimiz tomonidan 47 ta jinoiy holat aniqlanib, o'tgan yilga

taqqoslaganda, ularning sezilarli kamayishiga erishildi. Aniqlangan jinoyatlarni tahlil etsak, ularning aksariyati o'zlashtirish va rastrata yo'li bilan talon-toraj qilish, shtamplar, muhrlar, blankalarni tayyorlash, qalbakilashtirish, mansab soxtakorligi kabi holatlardir.

Bundan tashqari, ushbu davr mobaynida boshqarma jinoyat-qidiruv bo'linmasi xodimlari tomonidan qidiruvdagi 4 nafar shaxs qo'lga olingan. Masalan, «Qoraqalpog'iston» temiryo'l bekatiga kelib to'xtagan «Xo'jand-Volgograd» yo'nalishidagi yo'lovchi poyezdini ko'zdan kechirish

davomida qidiruvdagi shaxs T.K. borligi aniqlanib, qo'lga olindi. Shuningdek, «Domodedova-Nukus» reysidagi yo'lovchilarni tekshirish davomida jinoyati uchun qidiruvda bo'lgan A.S. ushlandi.

Sir emaski, huquqbuzarlik va jinoyatchilikning kamayishida huquqbuzarliklar profilaktikasi muhim o'rin tutadi. Shu kunga qadar boshqarma profilaktika inspektorlari tomonidan huquqbuzarlik sodir etgan shaxslarga nisbatan 2700 dan ortiq ma'muriy bayonnomalar tuzilgan bo'lsa, 3 nafar shaxsi noma'lum fuqaro reabilitatsiya markaziga joylashtirilgan. Kelgusida bu kabi holatlarning oldini olish maqsadida xizmat hududida joylashgan ta'lim muassasalari, temiryo'l obyektlariga yaqin joylashgan mahallalarda jamoatchilik vakillari ishtirokida tadbirlar o'tkazilib, tushuntirish ishlari olib borilmoqda.

Azamat PIRNIYAZOV,
o'z muxbirimiz.

Qoraqalpog'iston Respublikasi.

FAXRIYLAR – FAXRIMIZ

KASBIDAN QADR TOPGAN



Iste'fodagi podpolkovnik Shuhratilla Artikov va iste'fodagi katta serjant Kubarova Artikova juftligiga ko'pchilik havas bilan qaraydi. Chunki ular uzoq yillar ichki ishlar organlarida fidoyilarcha xizmat qilish barobarida, uch nafar qizini oq yuvib, oq tarab, el koriga yaraydigan insonlar etib tarbiyalashdi.

Kubarova yoshligidan hisob-kitobga usta edi. Shuning uchun ham ro'yi zaminning sayqali bo'lmish Samarqandda tavallud topgan qahramonimizning keyingi taqdiri aynan hisobchilik kasbi bilan bog'landi. U ichki ishlar organlarida faoliyat yuritgani uchun, ayni paytda, ikki kasbning egasi bo'ldi.

1995-yilda Toshkent shahar IIBB Moliya-iqtisod boshqarmasida yollanma ishchi sifatida xizmatni boshlagan K. Artikova 1999-yildan e'tiboran egniga ichki ishlar organlari libosini kiydi. Bu esa uning mas'uliyatini yanada orttirdi. Shirinsuxan, hech kimdan yordamini ayamaydigan xodima faoliyati davomida ko'plab xodimlar koriga yaraydi. Kimdir maoshi masalasida, kimdir pensiyaga chiqishi munosabati bilan maslahat so'rab kelardi. Murojaat qiluvchilarning muammosini erinmasdan tinglab, ularga beg'araz yordam berardi. Shu tariqa, 2010-yilga qadar faoliyat yuritgan K. Artikova katta serjant unvonida hurmat-e'tibor bilan pensiyaga kuzatildi.

O'z kasbidan qadr topgan xodima xizmat yillari davomida bir qancha shogirdlar orttirdi. Ularga o'z maslahatlarini berib, kasbining sir-asrorlarini o'rgatdi. Hozirgacha ham shogirdlarining ko'pchiligi undan maslahat so'rab turishadi.

Ichki ishlar organlarining turli sohaviy xizmatlarida faoliyat yuritgan iste'fodagi podpolkovnik Shuhratilla Artikov ham IIV SHTBIXda bo'lim katta inspektori, muhim topshiriqlar bo'yicha katta inspektor, bo'lim boshlig'ining o'rinbosari lavozimlarida samarali xizmat qilib, sohaga fidoyi kadrlarni tanlash, tarbiyalash ishlariga munosib hissa qo'shdi.

– O'zim suygan kasbda faoliyat yuritib, ustozlarimning beminnat o'g'itlarini olib kam bo'lmadim, – deydi Kubarova Artikova. – Turmush o'rtog'im bilan ham sohada xizmat qilish mobaynida tanishganman. Pensiyada bo'lsam-da, shogirdlarim tez-tez xabar olib, kezi kelganda esa maslahat so'rab turganidan tanlagan kasbimdan faxrlanib ketaman.

Kuni kecha farzandlari, nabiralari hamda o'g'illardan ham o'zadigan kuyovlarining duogo'yi bo'lgan Shuhratilla aka va Kubarova opa xonadoniga yaqinlari va shogirdlari jamuljam bo'lishdi. Ular muborak 60 yoshini qarshi olgan Kubarova opaning dildan qutlashdi va eng ezgu tilaklarini bildirishdi.

Sarvar SOBIROV,
o'z muxbirimiz.

Toshkent shahri.



XOTIRA PSIXOLOGIIYASI VA UNING KASBDA TUTGAN O'RNI

Xotira nima? Bu savolga ko'pchilik oddiygina qilib javob beradi. Aslida esa bu juda murakkab biologik va kimyoviy jarayondir.

Psixologiyada xotira – insonning bilish qobiliyatlari majmui, ya'ni, ma'lumotni yodlash, to'plash va ko'paytirish qobiliyatlari jamuljamidir. Bu shuni anglatadiki, har qanday ma'lumot dastlab miyada to'planadi, keyin unda saqlanadi, bu esa uni yanada ko'paytirishga imkon beradi.

Hozirgi vaqtda xotirani rivojlantirish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi, chunki telefon, kompyuter va planshet kabi gadjetlar shaxsning o'rniga juda ko'p funksional vazifalarni bajarmoqda. Bu esa, o'z o'rnida, ayrim shaxslarda xotira bilan bog'liq muammolarni keltirib chiqarmoqda.

Xotiraning qisqa muddatli va uzoq muddatli turlari mavjud. Qisqa muddatli xotira inson xotirasining bir turi bo'lib, bunda ozgina ma'lumotlarga ega bo'lish mumkin. Masalan, telefon raqamining 7 ta sondan iboratligiga sabab – qisqa muddatli xotira miqdori o'rtacha 7 ± 2 ta ma'lumotni saqlaydi. Uzoq muddatli xotiraning ma'lumot saqlash miqdori mavjud emas.

Ta'kidlash joizki, inson hayotining birinchi yillarida sodir bo'lgan voqealarni eslab qolishining iloji yo'q. Gap shundaki, miyaning xotira uchun mas'ul bo'lgan sohalari hali to'liq shakllanmagan, ya'ni, fiziologik jihatdan xotira chaqaloqlik va erta bolalik voqealarini saqlay olmaydi.

E'tibor qilish lozim bo'lgan yana bir jihat, inson xotirasi to'liq tushunilmagan. Ammo uning mexanizmi qanday ishlashini ishonch bilan aytish mumkin: yodlash; saqlash; e'tirof etilgandan keyin ko'paytirish; unutish.

Axborotni yodlashning ikki turi mavjud: ixtiyoriy va beixtiyor. Ixtiyoriy yodlash alohida ahamiyatga ega. Unga she'rlar, tarixiy sanalar, matematik formulalar kiradi. Bunday holda motivatsiyaning roli katta.

Beixtiyor yodlashni oldindan aytib bo'lmaydi. Misol uchun, shaxs ko'rgan, eshitgan, tegingan narsalarini eslaydi. Ba'zi ma'lumotlar uzoq muddatli xotira bo'limiga tushadi, boshqalari kerak bo'lmagani uchun yo'q qilinadi va shaxs undan foydalanmaydi.

Xotirani mustahkamlashning bir necha usullari mavjud. Rasmlarni eslab qolish samarali mashqlardan biridir. Bunday mashqni o'tkazish uchun biron bir qiziqarli rasmni tanlab olish kerak bo'ladi. Xotirani kuchaytirish uchun eng yaxshi mashq – sanash. Bu ancha samarali usul bo'lib, 1 dan 20 gacha yoki 20 dan 1 gacha bo'lgan sonlarni parallel ravishda sanash kerak. Agar inson sonlarning boshqa tillardagi talaffuzini bilsa, parallel ravishda ona tili va boshqa tilda sonlarni sanash xotirani tiklashga tezroq yordam beradi.

Xotirani yaxshilash uchun foydali usullardan yana biri «chapaqay qo'l» mashqini bajarishdir. Chapaqay insonlar uchun o'ng qo'lni, o'naqaylar uchun esa chap qo'lni ko'proq ishlatish talab etiladi. Bunday mashq bilan miyaning ishlashi kuchayadi va xotira tiklanishi yaxshilanadi.

Har bir kasbda, xuddi shuningdek, ichki ishlar organlari xodimlari faoliyatida xotiraning o'rnini alohida muhimdir. Shundan kelib chiqqan holda, quyida kasbga oid zarur ma'lumotlarni eslab qolish samaradorligini oshirish usullariga to'xtalib o'tamiz.

Yodlash. Katta hajmdagi, eslab qolish qiyin bo'lgan ma'lumotlarni odam «ichida» yoki fikran takrorlashi orqali uning xotirada aniq saqlanib qolishiga erishish mumkin.

Anglash. Har qanday ma'lumot, agar u anglangan bo'lsa, esda yaxshi saqlanib qoladi. Esab qolinadigan ma'lumotdagi ma'noli aloqalarni



aniqlashga «Nima uchun?» degan savolni qo'yish yordam beradi.

Qonuniyatlarni izlash. Bu raqamli ma'lumotlarni, masalan, avtomashina va telefon raqamlarini eslab qolishni osonlashtiradi. Ushbu usul eslab qolinadigan ma'lumotda muayyan qonuniyatni – ma'noli, raqamli va boshqa qonuniyatlarni topishga asoslanadi.

Analogiya, o'xshashliklardan foydalanish. Yangi ma'lumotni ma'lum ma'lumot bilan qiyoslash doimo uni eslab qolishni osonlashtiradi. Bunda obyekt nimaga o'xshashini aniqlash lozim bo'ladi.

Obrazli tasavvur. So'zda ifodalangan ma'lumotni tasavvur qilish orqali eslab qolish ancha oson.

Xayolan gapirish. Qidirilayotgan shaxsning surati, mashinalarning raqamlarini eslab qolayotganda, fikran, ichki nutqida «gapirsa», shaxsning yuzidagi ayrim jihatlarni ta'kidlasa, xotirada mustahkamroq va aniqroq saqlanib qoladi.

Modellashtirish. Bunda mantiqiy aloqalar yordamida betartib faktlar yagona tizimga birlashtiriladi. Ana shu tizim eslab qolish uchun model bo'lib xizmat qiladi. Taxminni ilgari surish orqali bo'lgan voqea qayta gavalantirilsa, modellashtirilsa, kerakli ma'lumotni yaxshi eslab qolishga yordam beradi.

Oqibatlarini tasavvur qilish orqali xotirani faollashtirish. Kerakli ma'lumot xotirada saqlab qolinmasa (yoki, aksincha, saqlab qolinsa) nima bo'lishini tasavvur qilish ham yaxshi samara beradi.

Tartibga keltirish. Ilgari esda olib qolingani ma'lumotni endi esda olib qolish kerak bo'lgan ma'lumot bilan bog'lash ularning xotirada ishonchliroq saqlanib qolishiga imkon beradi.

Unutish orqali eslab qolish. Nimanidir unutishni istasak, biz ana shu narsaga diqqatimizni jamlaymiz va natijada uni esda olib qolamiz. Xayolan yoqtirgan odamingizni dushmaningiz deb tasavvur qilishga harakat qilib ko'ring... Tasavvur qil-

dingizmi? Endi esa uni miyangizdan chiqarib tashlashga harakat qiling. Siz bu to'g'rida o'ylamaslikka qanchalik ko'p harakat qilsangiz, u sizni shunchalik kuchliroq ta'qib etadi.

Vaziyatni jismonan tiklash. Go'yoki «o'sha joyning o'zida bo'lib qolish» va u yerdagi narsalarni, masalan, kerakli tartibda joylashtirish lozim. Ko'rish tasavvurlariga tayanish zarur narsalarni eslashni osonlashtiradi.

Vaziyatni xayolan esga tushirish. Har doim ham o'sha sharoitda jismonan bo'lish, ahvolni jismonan esga tushirishning imkoni bo'lmaydi. Ammo butun vaziyatni uning qismlari bo'yicha xayolan tasavvur qilish, esga tushirish orqali ma'lumotni eslash mumkin.

Vaziyatlarni saralab tanlash. U kim? Eslolmaysiz... Shunda u kishini qayerda ko'rgan bo'lishingiz mumkinligini tasavvur qiling: bo'limda, uyingiz hovlisida, transportda va hokazo. Vaziyatlarni saralash chog'ida sizni qiziqtirayotgan shaxs haqidagi ma'lumotlar ham chiqib keladi.

Voqealar ketma-ketligini xayolan esga tushirish (uzilgan zanjirni tiklash). Xotirada voqealarning butun ketma-ketligini tiklash zanjirdagi yo'qolgan halqani topishga yordam beradi. Qidirilayotgan ma'lumot saqlanishi kerak bo'lgan ma'lumotlarning xayoliy zanjiridagi barcha halqalarni ketma-ket tekshirib chiqing. Zanjirda kemptik topganingizda, undan sakrab o'ting, oldinroqqa o'ting, so'ngra orqaga qayting. Agar halqa tiklanmasa, xotirangizni uzoq vaqt zo'riqtirmang – buning yordam berishi dargumon.

Xulosa o'rnida shuni aytish joizki, har bir shaxs, u qaysi kasb egasi bo'lishidan qat'i nazar, ma'lum bir ma'lumot bilan o'z xotirasini band qiladi. Bu ma'lumot qanchalik kerak yoki keraksizligini aniqlash esa o'z qo'lingizda.

Doniyor MIRZAXMEDOV,
kapitan.



SOHAVIY XIZMATLARDA

JINOYATCHILIKNI «MAHALLABAY» JILOVLASH

yoxud O'zbekiston tumani IIB tajribasi

Jinoyatchilikni «mahallabay» jilovlash va yo'l-transport hodisalarining oldini olish borasida Farg'ona viloyatining O'zbekiston tumani ichki ishlar bo'limida muayyan tajriba to'plangan bo'lib, mazkur tajribalarni boshqa shahar-tumanlarga ommalashtirish maqsadida seminar-trening o'tkazildi. Unda shahar-tuman ichki ishlar boshqarma va bo'limlarining boshliqlari, ularning o'rinbosarlari, soha faxriylari ishtirok etdi.

Seminar qatnashchilari viloyat Ichki ishlar boshqarmasi boshlig'i, general-mayor Azizbek Ikramov boshchiligidagi dastavval tuman IIB binosida jinoyat va huquqbuzarliklarning oldini olish yo'nalishida olib bo-

qayta taftishdan o'tkazilib, ular bilan muntazam ravishda profilaktik ishlar olib borilmoqda va ta'sir choralari ko'rilmoqda.

Tungi vaqtlarda jinoyat va huquqbuzarliklarning oldini olish maqsadida tuman IIBda



rilayotgan ishlarni o'zida aks ettirgan ko'rgazma bilan tanishishdi.

So'ngra yo'l-transport hodisalarining oldini olish maqsadida tumanda amalga oshirilayotgan innovatsion loyihalar ham namoyish etildi.

Seminar qayd etilganidek, tuman hududida jinoyatchilikni jilovlash maqsadida keng jamoatchilik bilan hamkorlikda «xonadonbay» va «fuqarobay» tizimi asosida jinoyat qilishga moyil bo'lgan fuqarolar, muqaddam sudlangan va profilaktik hisobda turgan shaxslardan 3 ming 912 nafarining ro'yxatlari

tungi xizmat tashkil etilib, «Bumerang», «Avtobus» tadbirlari tashkil etilyapti. Avgust oyida boshlangan ushbu tadbirlar davomida 3 ming 600 nafardan ortiq shaxslar bilan filtr so'rovlar o'tkazildi.

Hozirgi kunda tuman hududida 14 ta jamoatchilik nazorati maskanlari o'z ish faoliyatini olib bormoqda. 68 ta maktab, 57 ta maktabgacha ta'lim muassasasi va 3 ta kasb-hunar maktablarining tungi vaqtlarda qo'riqlanishini yanada yaxshilash maqsadida ushbu o'quv muassasa qorovullariga yorug'lik qaytaruvchi nimchalar, hushtak va fonarlar

tarqatilib, ulardan foydalanish, jinoyat va huquqbuzarliklar aniqlanganda xabar berish tartiblari bo'yicha yo'riqnoma o'tkazildi.

Bundan tashqari, tumanda

mahalla fuqarolar yig'inlarining har biriga 10 tadan, jami 60 ta videokuzatuv kameralari o'rnatilib, profilaktika inspektorining xizmat xonasiga integratsiya qilindi. Bu, o'z

uchrashuv davomida ichki ishlar organlari bilan faol hamkorlik qilib kelayotgan bir guruh ishchi-xizmatchilarga sovg'alar topshirildi. Shu yerda Milliy gvardiya qo'riqlash



videokuzatuv kameralarini o'rnatish orqali ham sodir etilishi mumkin bo'lgan jinoyatlarning oldini olishga erishilmoqda. Joriy yil avgust-noyabr oylari davomida «Turkiston», «Beruniy», «Bozor Yaypan», «Afg'on», «Obod» va «Dashtcho'lpon»

navbatida, ushbu hududlarda jinoyatchilik va huquqbuzarliklarning oldini olishda katta samara bermoqda.

Seminar davomida general-mayor Azizbek Ikramov tumandagi korxona-tashkilotlarning qorovullari bilan ham uchrashuv o'tkazib,

bo'limining ko'rgazmasi ham o'tkazildi. Ko'rgazma davomida qo'riqlash pultiga ulanishning afzalliklari tushuntirib berildi.

Abduvosit SIDIQOV,
o'z muxbirimiz.

Farg'ona viloyati.

HALOLLIKNI SHIOR QILGAN XODIMLAR

«MEHMON»NING TAKLIFI O'TMADI

Andijon tumani IIB Tezkor-qidiruv xizmati JQB boshlig'i, mayor Muhammadali Rahmonov «O'rikzor» mahallasida «Nexia-2» rusumli avtomashinada katta miqdorda psixotrop moddalar saqlanayotgani haqida ma'lumot oldi. Manzilga yetib kelgan M. Rahmonov Saydullo Nurmatov (ism-shariflar o'zgartirildi) ga tegishli avtomashinani xolislar ishtirokida ko'zdan kechirdi. Mashina salonidan 50 ta maxsus o'ramda «Lirika» psixotrop moddasi topildi. Vaziyatga oydinlik kiritish maqsadida avtomashina haydovchisi qo'lga olinib, unga nisbatan tergovga qadar tekshiruv ishlari boshlab yuborildi.

Ertasi kuni mayor Ahmadjon Nurmatov deb M. Rahmonovning xonasiga tanishtirgan bir kishi kirib keldi. U o'zini haydovchining qarindoshi qarindoshiga nisbatan ma'muriy

jazo qo'llashi va jinoyat ishi qo'zg'atmasligi uchun 2 ming AQSH dollari miqdorida pora taklif qildi.

Mayor uni pora berganlik uchun jinoiy javobgarlik belgilangani haqida ogohlantirdi. Ammo «mehmon» qat'iyat bilan pul taklif qilishda davom etdi. Shunda mayor M. Rahmonov u bilan keyingi kun uchrashishni taklif qildi.

IIV Shaxsiy xavfsizlik bosh boshqarmasi Andijon viloyati bo'yicha boshqarmasi xodimlari

tomonidan o'tkazilgan maxsus operatsiya davomida Ahmadjon Nurmatov pul mablag'lari joylangan konvertni mayor M. Rahmonovga berayotgan vaqtida qo'lga olindi. Unga nisbatan Jinoyat kodeksining 211-moddasi birinchi qismi bilan jinoyat ishi qo'zg'atildi. Hozirda tergov tadbirlari olib borilmoqda.

Boris KLEYMAN,
o'z muxbirimiz.

Andijon viloyati.


www.postda.uz

t.me/postdarasmiy

www.facebook.com/postdauz

www.instagram.com/postda_uz

■ Джизакская область



УДАРНЫЕ 40 ДНЕЙ

В республике в рамках «Ударных 40 дней» на высоком организационном уровне проводятся специальные профилактические мероприятия. Последовательно осуществляются они и в Джизакской области.



К мероприятиям, направленным на предупреждение правонарушений, борьбу с преступностью, привлечены сотрудники органов внутренних дел, Национальной гвардии и других правоохранительных структур, а также представители общественности.

Ведется осмотр объектов жилого фонда и социальной сферы, в ходе

которых также изучаются насущные проблемы граждан, принимаются меры по решению волнующих население проблем. С целью профилактики правонарушений большое внимание уделяется разъяснению норм законов, при этом активно используются возможности средств массовой информации. Положительный эффект приносят

общественные обсуждения лиц, переступивших закон.

Среди актуальных тем бесед – борьба с киберпреступностью, мошенничеством, предупреждение отравлений угарным газом. Всемерно пропагандируется здоровый образ жизни, подчеркивается, к каким последствиям, в том

числе правовым, могут привести пристрастие к спиртному, наркомания.

В рамках проводимых мероприятий инспекторами профилактики выявлено свыше 2 000 административных правонарушений. По выявленным фактам приняты необходимые меры. 33 женщинам, пострадавшим от насилия, выданы охранные ордера.

Кроме того, раскрыты 20 преступлений, связанных с наркотическими средствами и психотропными веществами. У подозреваемых изъято 1 килограмм 905 граммов наркотических средств и 3 730 единиц психотропных веществ. За этот период задержаны 13 лиц, находившихся в розыске, раскрыты 83 преступления, в том числе 10 преступлений, совершенных ранее.

По результатам проверок изъято 46 единиц охотничьего оружия, приняты меры в отношении лиц, нарушивших правила их хранения. Сотрудники ДПС зафиксировали свыше 5 000 правонарушений. Кроме того, проводятся профилактические беседы с ранее судимыми, лицами, находящимися под надзором службы пробации, на учете в органах внутренних дел.

Организуются ярмарки свободных рабочих мест, осуществляется подключение домов и организаций к системе охраны, ведется установка новых дорожных знаков. «Ударные 40 дней» продлятся до конца года.

Отабек ЖУРАЕВ,
старший лейтенант.



«BIZ ZO‘RAVONLIKKA QARSHIMIZ!»

OILA BAXTINI TAZYIQ YEMIRMASIN

ZO‘RAVONLIK – DAVR MUAMMOSI

Ayollarga nisbatan zo‘ravonlik – inson huquqlarining eng keng tarqalgan buzilishlaridan biridir. U xotin-qizlarni tenglik, xavfsiz hayotdan mahrum qiladi, inson qadr-qimmatini yerga uradi va asosiy erkinliklarini amalga oshirish imkoniyatlarini cheklaydi. Shu bois butun dunyoda bu muammoga qarshi kurash olib boriladi.

Yurtimizda keyingi yillarda xotin-qizlarning huquq va manfaatlarini, gender tenglikni ta‘minlash, oila, onalik va bolalikni himoya qilish, ularning bandligini ta‘minlash, mehnat va turmush sharoitlarini yaxshilash, xotin-qizlarga nisbatan tazyiq va zo‘ravonlikning oldini olish borasida bir qator ishlar amalga oshirilmoqda. Ayollarni rehabilitatsiya qilish va moslashtirish bo‘yicha respublika va hududiy markazlar tashkil etilgan. Ushbu markazlarning asosiy vazifalaridan biri og‘ir ijtimoiy ahvolda qolgan, jumladan, oilaviy muammolar va turmushida turli xil tazyiq va zo‘ravonlikka duch kelgan xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash, ularga shoshilinch tibbiy, psixologik, ijtimoiy, pedagogik, huquqiy va boshqa turdagi yordam ko‘rsatishdan iborat.

«1259» RAQAMIGA ISHONCH ORTMOQDA

Ayni paytda IIV Jamoat xavfsizligi departamenti qoshida tashkil etilgan jamoat xavfsizligini monitoring qilish va muvofiqlashtirish markazining «1259» qisqa raqamli «ishonch telefoni» orqali 24 soat mobaynida uzluksiz ravishda mamlakatimiz bo‘ylab tazyiq va zo‘ravonlikdan jabr ko‘rgan fuqarolardan murojaatlar qabul qilinadi.

— Shu o‘rinda koll-markazimizga bir kunda oilaviy zo‘ravonlik, er-xotin yoki uchinchi shaxs aralashuvida kelib chiqqan kelishmovchilik, qaynona-kelin, qo‘shnilar o‘rtasidagi turli noxush holatlar bo‘yicha huquqiy yordam so‘rab o‘rtacha qirg‘a yaqin murojaat kelib tushishini aytib o‘tmoqchiman, — deydi IIV Jamoat xavfsizligi departamenti Huquqbuzarliklar profilaktikasi xizmati katta inspektori, katta leytenant Zilola Aliyeva.

Ma‘lumot o‘rnida ta‘kidlash joizki, joriy yilning o‘n bir oyi mobaynida «1259» qisqa raqamli «ishonch telefoni»ga 5429 ta murojaat kelib tushgan. Shundan zo‘ravonlik holatlari bo‘yicha jami 883 ta holat qayd etilgan. Xususan,

oilat-turmush doirasida 363 ta, er-xotin o‘rtasida 324 ta, qaynola-qaynola va kuyov munosabatlari bilan bog‘liq 10 ta, qaynola-qaynola va kelin o‘rtasida 40 ta murojaat nazoratga olingan. Murojaatlarning 4297 tasiga huquqiy tushunchalar, 191 holatda esa himoya orderi berilgan.

ZO‘RAVONLIKKA QARSHI 16 KUN

Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 1999-yil 17-dekabrda rezolyutsiyasi bilan 25-noyabr – Xalqaro ayollarga nisbatan zo‘ravonlikka barham berish kuni sifatida belgilangan. Shu munosabat bilan har yili dunyo miqyosida, jumladan, mamlakatimizda 25-noyabrdan 10-dekabrgacha

ishlar ko‘lami yil davomida davom etayotganini ko‘rish mumkin.

Joriy yilning 10 oyi davomida 32 ming 664 nafar xotin-qiz himoya orderi berish orqali davlat himoyasiga olingan. Shu orqali 14 ming 296 ta oilani yarashtirishga, 16 ming 843 ta nizoni bartaraf etishga erishilgan. 8 ming 527 ta himoya orderi bo‘yicha ma‘muriy yoki jinoiy javobgarlik belgilanib, xotin-qizlarning buzilgan huquqlari tiklangan.

Bu yo‘nalishdagi amaliy ishlarda hududlardagi profilaktika inspektori, xotin-qizlar masalalari bo‘yicha katta inspektori hamda bir qator mas‘ullar hamkorlikda xotin-qizlarni kasbga o‘qitish orqali ular bandligini ta‘minlash, oilalarni mustahkamlashga alohida ahamiyat qaratishmoqda. Shu yilning 10 oyi davomida 90 ming

AYOLNING BAXTI YEMIRILMASIN

Har bir yosh oila qurib, yangi hayotga qadam qo‘yarkan, avvalo, turmushi shirin va baxtli bo‘lishini istaydi. Biroq quruq istakning o‘zi yetarli emas. Chunki oila deb atalmish qo‘rg‘onda hayot bir tekis ketmaydi. Bu birinchi navbatda er va xotindan sabr-qanoatli bo‘lishni, ahillikni talab etadi. Shuningdek, oilaviy hayotda qaynola-qaynola va jigarlar o‘rtasidagi murosa-madara ham ahamiyatli. Ammo keyingi vaqtlarda aynan shu masalalardagi ba‘zi holatlar ko‘ngilga g‘ashlik solishi ham bor gap.

— Surxondaryoning chekka hududlaridan birida istiqomat qiladigan homilador kelin qaynonasidan ko‘p jabr ko‘rishi, turmush o‘rtog‘i doim «Onam nima desa, shu» deb bir chekkada turishini aytib telefon qildi, — deydi IIV JXD HPX MTB inspektori, podpolkovnik Nazira Bobonazarova. — Shu oiladagi vaziyat o‘rganib chiqilib, kelinga himoya orderi berildi. Mahalla faollari ishtirokida oiladagi sog‘lom muhit, qaynola-kelin munosabatlariga oid profilaktik suhbatlar o‘tkazildi. Himoya orderi muddati tugadi, qaynola o‘zgardi va shu oila tinch-totuvlikda yashab ketdi. Demoqchimanki, xotin-qizlarning huquq va manfaatlarini himoya qilish, ularga nisbatan zo‘ravonliklarning oldini olish yo‘nalishida olib borilayotgan amaliy ishlar o‘z samarasini bermokda. Demak, bu borada doimiy ishlashimiz kerak, toki hech bir ayolning arzimagan gap-so‘zlar, kelishmovchiliklar sabab oilaviy hayotda munosabatlari, baxti yemirilmasin, hayoti boshi berk ko‘chaga kirib qolmasin.

XULOSA O‘RNIDA

Zo‘ravonlik, tazyiq sabab oila qo‘rg‘onining nurashi, ayol boshiga baxtsizlik, norasida go‘daklarga yetimlik ko‘lanka solishini o‘ylashning o‘zi qalbga og‘riq soladi. Afssuski, hayotimiz zo‘ravonlik va tazyiqdan xoli emasligi bu og‘riqni yanada kuchaytiradi. Ammo jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish, tazyiq va zo‘ravonlikka doir murosasizlik muhitini yaratish bo‘yicha sa‘y-harakatlarni izchil amalga oshirish sodir etilayotgan zo‘ravonliklarning kamayishiga olib kelishi shubhasiz.

Gulnoza TURG‘UNBOYEVA,
o‘z muxbirimiz.



Suratda: IIV JXD HPX MTB inspektori, podpolkovnik Nazira Bobonazarova hamda IIV JXD HPX katta inspektori, katta leytenant Zilola Aliyeva xizmat jarayonida.

«Zo‘ravonlikka qarshi 16 kun» shiori ostida turli tadbirlar o‘tkaziladi. Joriy yilgi tadbirlarda sohaviy xizmat xodimlari xotin-qizlarning huquq va manfaatlarini himoya qilish, ularga nisbatan zo‘ravonliklarning oldini olish, xotin-qizlarning jamiyatdagi mavqeyini yanada oshirish, gender tenglikni ta‘minlash masalalariga doir chiqishlari bilan faollik ko‘rsatishdi. Bundan ko‘zlangan maqsad esa bitta – xotin-qizlar zo‘ravonlik qurboni bo‘lishining oldini olish. Quyidagi raqamlarda ham bu boradagi

336 nafar ishsiz xotin-qiz kasb-hunarga va tadbirkorlikka o‘qitilgani, ularning 29 ming 921 nafari o‘zini o‘zi band qilib, shundan 12 ming 585 nafari imtiyozli kreditlar bilan ta‘minlangani so‘zimiz isbotidir. Shuningdek, 7 ming 188 nafar xotin-qiz o‘z biznesini boshlash maqsadida tadbirkor sifatida davlat ro‘yxatidan o‘tib, ularning 4 ming 373 nafari tijorat banklari tomonidan imtiyozli kredit ajratilgani va 26 ming 838 nafar xotin-qiz doimiy ish o‘rinlariga joylashtirilgani quvonarlidir.



INSON QADRI UCHUN

YANGILANGAN «QUYI CHUQURAK»

Bundan ikki oy muqaddam viloyat uchinchi sektoriga qarashli Shofirkon tumanining «Quy Chuqurak» mahallasini zamon talabi darajasidagi aholi maskaniga aylantirish sa'y-harakatiga jiddiy kirishilgan edi. Aytish joizki, «Obod xonadon, obod ko'cha, obod mahalla» mezonlari asosida tanlangan mazkur aholi maskani viloyat uchinchi sektori va tuman hokimligi, boshqa mutasaddi idoralarning tizimli ish faoliyati natijasida qisqa muddatda har jabhada namunaviy, obod, go'zal hududga aylantirildiki, bunda keng qamrovda amalga oshirilgan ishlarni ko'rib ko'z quvnaydi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi kuni munosabati bilan «Quy Chuqurak» MFYning ochilish marosimi o'tkazildi. Tadbirida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti maslahatchisining o'rinbosari Qahramon Sariyev, viloyat hokimi Botir Zaripov, Ichki ishlar boshqarmasi boshlig'i, polkovnik Mirjamol Miralimov, «Nuroni» jamg'armasi viloyat bo'limi raisi Samoydin Husenov, shuningdek, tashkilot, idora va korxonalar mas'ul mutasaddilari, jamoatchilik vakillari, mahalla faollari, ommaviy axborot vositalari xodimlari ishtirok etdilar.

Yig'ilganlar yangidan ishga tushirilgan mahalla fuqarolar yig'ini binosi, uning yonidan joy olgan «Uch avlod maskani», shuningdek, oilaviy shifokorlik punkti, ayollar salomat-

lik markazi, go'zallik saloni, tikuv sexida yaratilgan shart-sharoitlar bilan yaqindan tanishdilar. Hududda ehtiyojmand fuqarolarga imtiyozli kreditlar, subsidiyalar ajratilib, nogironlik aravachalari, dori-darmonlar taqdim etildi.



Keksa nuroniylar, mahalla ahli, yoshlar va keng jamoatchilik inson qadri ulug'langan yurtida yashayotganlariga shukronalik bildirishdi. Qo'laversa, tuman madaniyat uyi jamoasi, xushovoz xonandalarning kuy-qo'shiqlari davraga fayz bag'ishladi.

Shuhrat JALOLOV,
podpolkovnik.

Buxoro viloyati.



OGOHLIK

EHTIYOT BO'LING — IS GAZI!

Qishning yog'ingarchilik va sovuq kunlari boshlanishi bilan harorat keskin pasayib boradi. Shu bois, yashab turgan xonadonlarimizni isitish uchun turli choralar ko'ra boshlaymiz. Elektr isitish asboblari, tabiiy gaz tarmoqlari yoki isitishning boshqa turli yo'llaridan foydalanamiz.

Tabiiy gazning to'liq yonmasligi, bexosdan uzilib qolishi, xona ichida to'planishi, tabiiy gazni yoqib qarovsiz qoldirish, quvurlarni ulashda xavfsizlik qoidalariga rioya qilmaslik oqibatida chaqnash, yong'in hamda tabiiy va is gazidan zaharlanish holatlari kabi turli favqulodda vaziyatlar sodir bo'lmoqda.

Is gazi xonadonlarda, tashkilotlarda foydalaniladigan tabiiy gazning to'liq yonmasligi, ko'mir va organik moddalarning chala yonishidan hosil bo'ladigan gazdir. U – rangsiz, hidsiz va ta'msiz gaz bo'ladi. Is gazining organizmga ta'siri natijasida qonda keskin o'zgarish kuzatiladi, uning tarkibidagi gemoglobin bilan reaksiyaga kirishib karbonsigemoglobin moddasini hosil qilishi natijasida to'qimalarga kislorodning yetib kelishi va qondagi zararli moddalarning ajralib chiqish jarayoni buziladi. Bu esa organizmda kislorod tanqisligini keltirib chiqaradi. Bunday hollarda bosh qattiq og'rib, qusish, hushdan ketish kuzatiladi hamda nafas olish sekinlashadi. Ba'zan o'lim holatiga olib keladi.

Tabiiy gaz va is gazidan zaharlanish bilan bog'liq favqulodda vaziyatlar quyidagi holatlarda sodir bo'lishi mumkin:

- tabiiy gazning to'liq yonmaganidan hosil bo'ladigan is gazining salbiy ta'siri;
- isitish tizimiga tabiiy gazni ulashda me'yoriy talablarga rioya etmaslik;
- foydalanishda texnika xavfsizligi qoidalariga rioya qilmaslik;
- isitish uchun mo'ljallangan pechkalar hamda mo'rilarining soz holatda emasligi, yaxshi tozalanmaganligi va boshqalardir.

Xonada tabiiy gaz yig'ilib qolganida zudlik bilan quyidagilarni amalga oshirish zarur:

- oyna va derazalarni ochib, shamollatish;
- elektr jihozlarini yoqmaslik, yoqiq bo'lsa o'chirmaslik;
- gaz jo'mraklarini berkitish;
- berkitishning iloji bo'lmasa yoki yorilgan, singan va teshilgan joylar aniqlansa, gaz ta'minoti avariya xizmatiga xabar berish.

Tabiiy va is gazidan zaharlanish yuz bersa, zudlik bilan zaharlangan kishiga birinchi tibbiy yordam ko'rsatilib, **103, 104, 1050** telefon raqamlari orqali murojaat qilishni yodda tuting.



Урок духовности и просвещения

ПСИХОЛОГИЯ ПАМЯТИ И ЕЕ РОЛЬ В ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ

Память – сложное психическое явление, состоящее в способности человека сохранять в сознании и воспроизводить различные обстоятельства, имевшие место в прошлом. Память связана с восприятием и другими формами сознания личности.

От памяти зависит многое – эффективность обучаемости, способность работать в режиме многозадачности и др.

В профессиональной деятельности сотрудника органов внутренних дел память выполняет достаточно широкие функции. Она должна отличаться большим объемом, прочностью запоминания, достаточной мобилизационной готовностью припомнить необходимые сведения, причем в нужный момент. Сотрудник должен уметь извлекать из памяти свидетелей, потерпевших необходимую информацию, обладать знаниями о запоминании, сохранении и воспроизведении. При этом необходимо обращать внимание на следующие закономерности памяти:

- **запоминание** в виде наглядных (эйдетических) образов, т. е. человек отлично и произвольно запоминает объект и затем подробно его воспроизводит;
- **наличие «эффекта Зейгарника»** – незавершенные, прерванные действия запоминаются в два раза чаще, чем законченные;
- **учет особенностей воспроизведения** – реминисценции, сущность которых состоит в усилении в памяти новых смысловых связей (повторные опросы и т.д.);
- **учет процесса забывания у людей** с определенными нарушениями психической деятельности;
- **использование приемов активизации** памяти участников гражданского (уголовного) процесса.

Выделяют различные виды памяти человека. Одни позволяют получать навыки для выполнения работы, различных видов деятельности. Другие используются как защитные механизмы, которые не позволяют нам нанести вред своему здоровью или повторить допущенную ошибку много раз.



Долговременная память. Нужно, чтобы хранить информацию на протяжении длительного времени. Именно такая способность к запоминанию помогает взрослым помнить факты из своего прошлого.

Кратковременная память. Вся информация, которая поступает к нам, изначально попадает именно в кратковременную память. Длительность ее хранения зависит от индивидуальных особенностей человека и обычно составляет от пяти до семи минут. После того, как время первоначальной обработки прошло, мы либо забываем информацию, либо организм отправляет ее на хранение в долговременную память.

Оперативная память. Ошибочно думать, что это наименее продолжительное по времени запоминание информации. На самом деле, оперативная память обслуживает определенные виды действий. Данные могут оставаться в мозге человека на протяжении нескольких дней, если того требует ситуация. При многократном повторении, действия, зафиксированные в опе-

ративной памяти, также переходят в долговременную.

Двигательная память. При помощи такого механизма человек может запомнить, сохранить и воспроизвести различные движения. Именно так мы учимся ходить в детстве или выполнять различные действия руками.

Образная память. Направлена на то, чтобы сохранять яркие картины, запахи, вкусы и звуки, которые встречаются нам в жизни. При образном запоминании используется несколько видов памяти: зрительная, вкусовая, осязательная, слуховая, обонятельная. Именно так человек не только формирует картину мира вокруг себя, но и может связать несколько образов. К примеру, глядя на розу, мы сразу представляем ее аромат. Это результат того, что несколько форм запоминания работают в связке и создают четкий ассоциативный ряд.

Эмоциональная память. Позволяет запоминать наши чувства и эмоции. Это важный механизм, который служит катализатором или тормозом при повторении определенных действий. С раннего возраста человек учится повторять то, что приносит ему удовольствие, остерегаться действий с негативной эмоциональной окраской.

Словесно-логическая память. Содержит мысли человека, существующие с привязкой к нашему языку. Это позволяет разговаривать, формулировать предложения на том языке, который вы выбираете для общения с собеседником.



Ирода ХАКИМОВА,
главный психолог ИПК МВД
Республики Узбекистан,
майор.

Произвольная и произвольная формы запоминания

Произвольно человек запоминает что-то, потому что у него есть цель сделать это. Но мозг может закрепить какую-то информацию и произвольно. Именно по этой причине иногда мы весь день не можем отделаться от случайно услышанной где-то фразы, хотя могли и не обратить на нее особого внимания.

Что влияет на память

На способность человека запоминать влияет множество внешних факторов. К ним относятся наследственность, характер деятельности, состояние здоровья и др.

Ученые активно проводят эксперименты, которые призваны показать, что влияет на возможность кратковременного или долговременного закрепления информации. К примеру, установлено, что мы хуже запоминаем факты, если не высыпаясь или сильно устаем, употребляем в пищу недостаточное количество различных витаминов и микроэлементов.

Как улучшить способность запоминать

Многие виды памяти у человека можно улучшить, если выполнять те или иные действия. К ним относятся:

специальные упражнения, использование методов мнемоники (орфографические, ключевых слов, деления целого на части, рифмы, ассоциации и т.д.);

соблюдение режима сна, отдыха; стабилизация рациона, прием витаминных комплексов по совету врача;

физическая активность, регулярное нахождение на свежем воздухе.

Также не стоит забывать о наборе методов, которые позволяют увеличить объем как кратковременной, так и долговременной памяти.



DOLZARB MAVZU

XAVFSIZLIK KAMARI

hayot uchun muhim

Ertalab ishga kelayotganimda «Lacetti» va «Cobalt» to'qnashuviga guvoh bo'ldim. Yo'l-transport hodisasi natijasida «Cobalt» ag'darilgan, «Lacetti» esa old qismi bilan devorga urilgandi. Darhol har ikki avtoullovning gaz ballonlari buragichini yopib, «Lacetti»ning ishlab turgan yuritgichini o'chirdim.

Bu vaqtda yoshi 60 dan oshgan qariya «Cobalt»dagi yo'lovchi ayolni chiqarish choralari ko'rayotgandi. Keyin bilsam, otaxon oldi pachaqlangan «Lacetti» haydovchisi ekan, havo yostig'i va xavfsizlik kamari tufayli unga jarohat yetmagandi. «Cobalt» haydovchisining bir-ikki joyi ko'karib, tiralganligini aytmasa, hammasi joyida. Uning ham joniga xavfsizlik kamari aro kirgan.

Ammo yo'lovchining ahvoli og'irli-gi yaqqol sezilib turardi. U xavfsizlik kamarini taqmagani uchun boshi bilan avtoullov oynasini sindirgan. Xizmat faoliyatim davomida shu tarzda xavfsizlik kamarini taqqan insonlar-

ning joni omon qolgani, aksincha, taqmaganlarga aziyat yetganligini ko'p ko'rganman. Darhaqiqat, mutaxassislar xavfsizlik kamari tufayli avtohalokatlarning 70 foizi o'lim bilan yakunlanmasligini ta'kidlaydilar.

Xavfsizlik kamarining samardorligi avtomobildagi haydovchi va yo'lovchilarning barchasi undan foydalanganda yanada yuqoriroq bo'ladi. Chunki avtoavariyalarda avtomobil salonidagi haydovchi va yo'lovchilar turli tomonga qattiq chayqalib o'rindiqlarga, avtomobil oynalariga va yo'lovchilar o'zaro bir-biriga uriladilar. Hatto bitta yo'lovchi xavfsizlik kamarini taqma-



gan bo'lsa, boshqa yo'lovchilarga (garchand ular xavfsizlik kamarini taqqan bo'lsalar ham) jiddiy halokatli jarohatlar yetkazishi mumkin.

Xavfsizlik kamarining ahamiyati haqida uzoq gapirish mumkin. Ammo xalqimizda ming marta eshitgandan ko'ra bir marta ko'rgan afzal, deyishadi. Internetda minglab krash-test videolari mavjud. Har birimiz ularni bir martadan ko'rsak ham foydadan xoli bo'lmaydi.

Qisqasi, dunyoda avtomobillar

sonining ortishi yo'l-transport hodisalarining keskin ko'payishiga olib keldi. Yana shuni unutmaslik kerak, haydovchining kamar taqmasligi jarimaga sabab bo'ladi. Ayrim holdlarda tezlikning kutilmaganda o'zgarishi, tormozlash ortidan ham jarohatlar yuzaga keladi. Shu ma'noda, xavfsizlik kamarini haydovchilar ham, yo'lovchilar ham taqishlari shart.

Abbos DADASHEV,
Jizzax viloyati IIB JXX YHXB
katta inspektori, leytenant.

JAZONI IJRO ETISH TIZIMIDA

MONOMARKAZ BILAN HAMKORLIKDA

Jazoni ijro etish muassasalari xodimlarining asosiy maqsadi jazolash emas, bilib-bil-may jinoyat sodir etganlarga to'g'ri yo'l ko'rsatish, tarbiyalashdir. IIV huzuridagi JIED Beshinchi mintaqaviy muvofiqlashtirish markazi mas'ullari bu borada samarali ishlarni amalga oshirmoqda.



Masalan, Navoiy shahrida joylashgan 4-sonli jazoni ijro etish koloniyasida joriy yilning o'tgan davri mobaynida yangi tikuv sexi ishga tushirildi. 11-sonli jazoni ijro etish koloniyasida esa umumiy o'rta ta'lim maktablarida tashkil etilgan harakat xavfsizligi xonalari uchun maketlar tayyorlash sexi faoliyati yo'lga qo'yildi. Shu tariqa, jami 300 ta yangi ish o'rni yaratildi.

Har bir yangi tashkil etilayotgan korxona bugungi kun talablari-dan kelib chiqqan holda, raqamli dastgoh va asbob-uskunalar bilan jihozlangan. Bu esa mahkumlar-ni zamonaviy kasb-hunar egasi bo'lishida ahamiyatlidir. Shu bois mintaqaviy muvofiqlashtirish markazi va muassasalar mas'ullari mahkumlarni zamonaviy kasb-hunarga o'qitish choralari ko'rishyapti.

Navoiy shahar «Ishga marhamat» monomarkazi hamda Beshinchi mintaqaviy muvofiqlashtirish markazi o'rtasida imzolangan hamkorlik memorandumiga asosan, viloyatda joylashgan 4 ta jazoni ijro etish koloniyasida mahkumlarga kasb-hunar o'rgatishga kirishildi.

– Dastlab mahkumlar o'rtasida qaysi kasb-hunarni egallashga qiziqishi yuzasidan so'rovnomalar o'tkazilib, monomarkazda o'qish istagini bildirganlar ro'yxat-

ti shakllantirildi. Markazning mas'ul xodimlari esa muassasalardagi imkoniyatlarni o'rganib chiqishdi. Markaz talablaridan kelib chiqqan holda barcha muassasalarda maxsus o'quv-xonalari tashkil etildi, amaliyot xonalari ajratilib, zarur texnika va jihozlar bilan ta'minlandi. Jazoni ijro etish muassasalarida faoliyat olib borayotgan xodimlar bilan ishlashda, shuningdek, xizmat intizomini mustahkamlashda, huquqiy targ'ibot hamda ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarni tashkil etishda mayor Fayoz O'roqov, kapitanlar Ilhom Rustamov, Shahboz Rahimov va Alisher Axtamov faollik ko'rsatmoqda, – deydi IIV huzuridagi JIED Beshinchi mintaqaviy muvofiqlashtirish markazi boshlig'i, podpolkovnik Ikrom Sherov.

Bir oy davomida monomarkazning malakali muhandis-ustalari o'quv mashg'ulotlari o'tkazishdi. Nazariy bilimlarni egallab, amaliyot uyg'unligida kasb-hunar sirlarini o'rgangan va imtihonlarini muvaffaqiyatli topshirgan 345 nafar mahkumga tegishli mutaxassisliklar bo'yicha sertifikatlar topshirildi.

Yana bir narsani alohida e'tirof etib o'tish joizki, mahkumlarni monomarkazda kasb-hunarga o'qitish tizimi joriy etilganligi ularning bo'sh vaqti foydali maqsadlarga yo'naltirilishini ta'minlab, tartibbuzarliklar soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan salmoqli darajada kamayishiga xizmat qildi.

Mahliyo XOLOVA,
o'z muxbirimiz.

Navoiy viloyati.


www.postda.uz

t.me/postdarasmiy

www.facebook.com/postdauz

www.instagram.com/postda_uz

14-YANVAR – VATAN HIMOYACHILARI KUNI

SADOQAT G'OYASI

Vatan himoyasi – muqaddas burchdir,
Er yigitlar mudom sodiqdir elga.
Sadoqat g'oyasi – qalblarga kuchdir,
U bizni chorlagay sharaflı yo'lga.

Vatanni asramoq – sharaflıdir, shondir,
U oru nomusdir, dilda iymondir.
Dunyoda tengi yo'q, aziz, muqaddas –
Vatan bizlar uchun – tan ichra jondir.

Biz yurtga, tinchlikka, baxtga posbonmiz,
Bedormiz hamisha, fidoyi jonmiz.



Yovlar bosh ko'tarsa yancharmiz darhol,
Tinchlik qo'rg'oniga metin qalqonmiz.

Biz qudrat olurmiz quyoshli tongdan,
Muqaddas sajdagoh – ona makondan.
Sog'-omon bo'lsang bas, jonajon Vatan,
Kechurmiz sen uchun hattoki jondan.

Vatanni asramoq – sharaflıdir, shondir,
U oru nomusdir, dilda iymondir.
Dunyoda tengi yo'q, aziz, muqaddas –
Vatan bizlar uchun – tan ichra jondir.

Zikrilla NE'MATOV,
iste'fodagi polkovnik.

MARDLAR QO'RIQLAYDI VATANNI


DOVONDAN OSHGAN CHO'QQINI KO'ZLAR

Har bir yosh yigit ona Vatan osoyishtaligi yo'li-
da xizmat qilishni orzu qiladi. Qarshi shahridagi
4-o'rta maktabni tugatgan Ruslan ota-onasiga
ofitser bo'lish niyatida ekanligini aytdi.

– Niyating qat'iy bo'lsa, oma-
dingni bersin. Ammo hech qa-
chon shuni unutmanginki, eg-
ningga harbiy libos kiydingmi,
hamisha elning e'tiborida bo'la-
san, – dedi otasi Abdurahim aka.
– Shunday ekan, burchingga
sadoqatli bo'l. Vatan himoyachisi
degan yuksak nomga hech qa-
chon dog' tushirma.

Lavhamiz qahramoni IIV Tosh-
kent oliy harbiy texnika bilim

o'tgan turli tanlovlar
va sport musobaqa-
larida faol ishtirok
etdi. Amaliyot davo-
mida harbiy ustav va
nizom asosida xizmat
qilish, jamoat tartibi-
ni saqlash, fuqarolar
xavfsizligini ta'min-
lash, jinoyatlarning
oldini olish, kutilma-
gan va favqulodda



Qarshi shahridagi
7533-harbiy qism-
da guruh koman-
dirligidan bosh-
ladi. Ustozlari,
podpolkovniklar
Ulug'bek Xolman-
ov hamda Bot-
ir Davlatovning
maslahatlariga
amal qilgan holda,
harbiylik qirralarini
o'zlashtirdi. Beril-
gan topshiriqlarni
bekamu ko'st ba-
jarish, o'z ustida
ishlash, tirishqo-
qlik xislatlari bilan
rahbarlari hamda

harbiylardan yuzaga kelishi mum-
kin bo'lgan muammolarni bartaraf
etishda ko'magini ayamadi. Qay-
erda, qaysi lavozimda xizmat qil-
masin, ota-onasi va ustozlarining
o'giti, zimmasidagi mas'uliyati va
majburiyati doimo yodida turdi.

Ruslan Bozorov hozirda ilk xi-
zmatini boshlagan 7533-harbiy
qismda batalyon komandiri la-
vozimida faoliyat yuritmoqda.

Xalqimizda «Dovondan oshgan
cho'qqini ko'zlar» degan naql bor.
Turmush o'rtog'i Irodaxon bilan
uch nafar farzandni tarbiyalab
kelayotgan mayor Ruslan Bozo-
rovning ham o'z oldiga qo'rgan
orzulari bisyor. O'tgan yili mam-
lakatimiz Qurolli Kuchlari Aka-
demiya ofitser kadrlarni qayta
tayyorlash va malakasini oshirish
fakultetida o'qib, kasbiy bilim, ta-
jribasini boyitdi.

Azamat XOLMATOV.

yurtida tahsil olgan kezlari har-
biylik sir-sinoatlarini egallash
bilan birga, sohaga oid kitoblarni
mutolaa qilib bilimni boyitdi.
Kursantlar o'rtasida bo'lib

holatlarda qanday yo'l tutish
borasida tajriba va malakasini
oshirdi.

Tizimdagi ilk faoliyatini IIV
Qorovul qo'shinlariga qarashli

hamkasblari e'tiborini qozondi.

So'ngra IIV Qorovul qo'shinlariga
qarashli poytaxtimizdagi 7531-har-
biy qismda vzvod komandiri bo'lgan
kezlari sohaga oid bilimi, tajribasi
va malakasini yanada boyitdi. Yosh



Ветераны в строю

СДЕЛАТЬ ПРАВИЛЬНЫЙ ВЫБОР

Найти свое призвание довольно непростое дело. Можно получить высшее образование, профессию и работу. Однако, если душа не лежит к тому, чем занимаешься, то ни карьерного роста, ни морального удовлетворения не жди. Вся загвоздка в том, что к моменту выбора рода занятия, молодой человек еще не может разобраться в самом себе, определиться с предпочтениями.

Окончив в Ташкенте технический институт, Толиб Муминов стал инженером в ширкатном хозяйстве «Зарафшан».

Когда объявили отбор на вакантные места в органах внутренних дел, сдал документы без раздумий и в 1999 году был принят дежурным инспектором пульта управления охраны при областном УВД. Через год его перевели в Каракульское РОВД, где продолжил деятельность в службе профилактики. Прослужив инспектором, а позже старшим инспектором профилактики, в 2015 году в звании майора вышел на пенсию.

Как признается наш собеседник, ему повезло с наставниками.

— В день, когда впервые надел форму, дядя, полковник в отставке Ражаббой Очилов, дал наставления. Он подчеркнул, что люди видят в



сотрудниках органов внутренних дел защитников, к которым обращаются в сложных ситуациях. Чтобы помочь недоста-

точно только профессиональных навыков, нужны человечность, справедливость. Наставниками считал и более молодых

коллег, потому что они обладали большим стажем и опытом.

Сейчас Т. Муминов сам поддерживает молодых

сотрудников, участвуя в многочисленных мероприятиях, организуемых председателем Совета ветеранов районного ОВД Шавкатом Хайитовым.

На пенсии не сидит сложа руки. Занялся выращиванием овощей и бахчевых. Построил теплицу, основал небольшую пасеку. Успешно пошла дела в птицеводстве и животноводстве. Словом, нагрудного знака «Намунали томорқачи», вручаемого за организацию образцового приусадебного участка, в минувшем году он удостоился по заслугам.

Неудивительно, что ветеран пользуется доброй репутацией среди махаллинцев, которым всегда рад помочь. Вместе с супругой, Умидой Сирожовой, воспитали троих детей. Бехрузжон пошел по стопам отца. Он служит в батальоне ППС СОБ УВД области. Озодахон — педагог, а Мафтунахон учится в медицинском институте.

Мирзокул АХАДОВ,
соб. корр.

Бухарская область.

Грани мастерства

НЕ ЗНАЯ УСТАЛОСТИ

Спускаясь в метро Дилшод М., страдающий эпилепсией, потерял сознание. Благодаря своевременным действиям сотрудников, оказавшим первую доврачебную помощь, парень пришел в себя.

Это не первый случай, когда люди в погонах приходят на помощь гражданам.

— Работа сотрудников на метрополитене непростая. Всегда надо быть начеку, — говорит старший инспектор отдела духовно-просветительской работы и кадрового обеспечения Управления обеспечения безопасности на метрополитене Департамента обеспечения безопасности на объектах транспорта и туризма МВД Узбекистана лейтенант Евгений Ким.

Е. Ким осуществляет целенаправленную работу среди личного состава, принимает непосредственное участие в организации и проведении воспитательных мероприятий. В центре внимания индивидуальный подход к каждому сотруднику.

После прохождения срочной службы в зенитно-ракетном ба-

тальоне Евгений Ким твердо решил работать в органах внутренних дел. Окончил заочный факультет Академии МВД. Служил конвоиром в отдельном конвойном батальоне ГУВД города Ташкента. Нередко родственники подсудимых пытались через решетку незаметно передавать им непопущенные вещи, кричали на конвоиров. Евгений мог успокоить людей, взять ситуацию под контроль.

Большую роль в его профессиональном становлении сыграл наставник — помощник командира взвода конвойного батальона старший сержант Биродар Ашурметов, который учил быть наблюдательным, уметь анализировать, оперативно принимать верные решения.

Герой очерка вырос в махалле, которая привила ему уважение



к традициям и духовным ценностям народа. Он в совершенстве владеет узбекским языком, для него нет языкового барьера в общении с гражданами и коллегами. Жена Евгения, Виктория, — домохозяйка, 13-летняя дочь Виолетта увлекается вязанием, 11-летняя Таня любит рисовать,

а младшая, Настя, — всеобщая любимица. Семья гордится им.

Всегда подтянутый, собранный, вежливый старший инспектор трудится, не зная усталости, и от других требует таких же высоких показателей.

Мардона БАХТИЯРОВА.



IZQUVARLAR HAQIDA HIKOYALAR

TEGIRMON NAVBATI BILAN

Nurota tumani «Zulqarnay» mahallasida istiqomat qiluvchi Axtam otaning (voqea ishtirokchilarining ismlari o'zgartirildi) qo'rasida 100 boshga yaqin qo'y-echkilari bor edi. Erta tongdan ularni qir-adirlarga haydaydi. Xullas, cho'ponlik orqasidan ro'zg'or tebratadi.



Suratda: mayor Elbek Sultonov (chapda) xizmat paytida.

Bir kuni ertalab qo'y-qo'zilarni qo'rasidan chiqarayotib 2 bosh qo'yi

yo'qligini payqadi. Darhol bu haqda tuman IIBga qo'ng'iroq qilib, holatni tushuntirdi.

Ko'p o'tmay yetib kelgan tergov-tezkor guruhi a'zolari ishga kirishishdi. Tezkor vakil, mayor Elbek Sultonov ayni sovuq zabtiga olgan mahal qo'tonning atrofini ko'zdan kechirar ekan, poyabzal iziga ko'zi tushdi. Izlar bolalar oyoq kiyimiga o'xshashligini ko'rib biroz shubhalandi. Chunki otaxonning ikki o'g'li ham ulg'ayib qolgan bo'lib, Samarqand shahrida o'qishardi. Axtam otadan yaqin orada uyiga kimlar kelganini so'radi. Af-suski, tayinli gap ololmadi.

«Zulqarnay» mahallasidagi uylar orasi juda uzoq bo'lib, qo'shni hovli ancha narida joylashgan edi. Jabrlanuv-chining qo'shnisi Badir aka yaqinda jazo o'tab qaytgani-ni hisobga olib, balki yana eski «hunari»ning xumori

tutgandir, degan o'yda u bilan suhbatlashishga shoshildi. Borsa, Badir aka qattiq shamollab yotgan ekan. Xonadondan chiqqan turib, ostonadagi oyoq kiyimlarga ko'zi tushdi. Sport kross-sovkasini qo'lga olib, ostiga qaradi. Qo'ra atrofida qoldirilgan izlar mana shu poyabzal ostidagi «naqsh»larga juda o'xshardi. Krossovka Badir akaning o'g'li Botirniki ekan. Surishtiruv chog'ida Elbek Sultonovning shubhalari o'z tasdig'ini topdi. Maktabning 9-sinfida o'qiydigan Botir yarim kechasi Axtam otaning qo'rasidan 2 bosh qo'yini o'g'irlab, qassobga sotib, pullarni o'z ehtiyoji uchun ishlatib yuborgan edi.

Nurota tumani IIB TQX JQB tezkor vakili, mayor Elbek Sultonov qariyb 15 yildan beri ichki ishlar organlarida xizmat qiladi. Faoliyatini Nurota tumanida-gi «Eshon sudur» mahallasi

profilaktika inspektorligidan boshlagan. Joriy yilda tuman hududida sodir etilgan jinoyatlarning aksariyati uning tezkorligi, topqirligi va sinchkovligi tufayli «issiq izida» fosh etildi. Qolaversa, aholi o'rtasida jinoyatchilik hamda huquqbuzarliklarning oldini olish borasida olib boriladigan keng qamrovli targ'ibot tadbirlarida ham faol ishtirok etadi. O'tkazilgan profilaktik ishlar o'z samarasini berib, tumanda og'ir va o'ta og'ir turdagi jinoyatlar kamayishiga erishildi.

«Tegirmon navbati bilan», deb bejiz aytishmaydi. IIV Akademiyasida olgan nazariy bilimlarini, ustozlaridan o'rganganlarni amaliyotda qo'llab, malakali mutaxassis darajasiga yetishgan qahramonimiz endilikda yoshlarga ham kasbiy mahorat sirlarini o'rgatmoqda.

Mahliyo XOLOVA,
o'z muxbirimiz.

Navo'iy viloyati.

PROFILAKTIKA XIZMATI

CHIROG'I O'CHMAYDIGAN UY

Namangan tumanining «Xonobod» mahallasidagi xizmat uyida profilaktika katta inspektori, mayor Ahadjon G'oi-pov oilasi bilan istiqomat qiladi.

Davlat bayrog'i mudom hilpirab turgan xonadonning doim chirog'i yoniq. Xodimning o'z hududida yashab xizmat qilishi mahalla fuqarolari uchun qulay. Chunki xohlagan paytda mahalla fuqarolari o'z muammolari bilan murojaat qilishadi. Ahadjon ham aholining og'irini yengil qilsa, mamnunlik hissini tuyadi.



Lavhamiz qahramoni Namangan davlat universitetini tamomlab, bolaligidan orzu qilgan soha – ichki ishlar organlari safida xizmat qilish uchun astoydil tayyorgarlik ko'rib, 2013-yilda xizmat faoliyatini boshladi. Mana shunga ham o'n yil bo'lib-di.

Ahadjon shijoati, topshiriqlarga mas'uliyat bilan qaragani uchun o'tgan vaqt mobaynida viloyat IIB tomonidan bir necha marta munosib rag'batlantirildi. Jumladan, Mustaqillik bayrami arafasida vazirlikning faxriy yorlig'i bilan taqdirlandi. Muhimi, faoliyatini boshlagandan buyon biror marta intizomiy jazoga tortilmadi.

Mayor Ahadjon G'oi-pov 3400 nafar aholi yashayotgan «Xonobod»ni tinch hududga aylantirishda jonbozlik ko'rsatib, «yashil» toifaga olib chiqdi. O'rnatilgan videokuzatuv moslamalari orqali bir

vaqtning o'zida kattagina hududni kuzatib turishning imkoni bor.

– Ichki ishlar organlari xodimlari uchun munosib xizmat va yashash sharoitlari yaratilmoqda, – deydi u. – Birinchilardan bo'lib xizmat uyi va shaxsiy avtomashinaga ega bo'ldim. Uyim va ish joyim orasi 50 qadam.

Mahalla ahli issiqxonalardan katta daromad topadi. Chorvachilik ham yaxshi rivojlangan. Ahadjon G'oi-povning uyida ham ot, qo'y boqiladi, sayroqi qush va kabutarlarning noyob turlaridan ham bor. Uy bekasi Shoiraxon uch nafar farzand tarbiyasi bilan birga, turmush o'rtog'iga chorva va parrandalarni boqishda ko'maklashadi.

Gulchehra BUVAMIRZAYEVA,
o'z muxbirimiz.

Namangan viloyati.



MA'RIFAT BO'STONI

HAYOTGA GO'ZAL NIGOH BILAN BOQ

Qahraton qish, pag'a-pag'a qor yog'ardi. Havo sovuq, lekin tiq etgan shamol yo'q. Oppoq, momiq qor parchalari raqs tushgan misoli osmondan aylanib-aylanib tushardi.

Yonma-yon uchib borayotgan ikkita qor parchasi o'zaro suhbatlashib qoldi. Ular bir-birini yo'qotib qo'yishdan qo'rqib, qo'l ushlab oldi. Shunda ulardan biri quvnoq ovoz bilan dedi:

– Uchish, parvozdan zavq olish qanday yaxshi!

– Axir, biz uchmayapmiz, shunchaki yerga tushayapmiz, – ma'yus javob qildi ikkinchisi.

– Tez orada biz yer bilan uchrashib, momiq choyshab kabi

to'shalmiz.

– Yo'q, biz halok bo'lish uchun tushayapmiz, odamlar bizni oyoqlari bilan ezib tashlaydi.

– Adashyapsan, bizning umrimiz tugamaydi.

Havo isib ketsa, jilg'alar hosil qilib,

ko'l va dengizlar sari yo'nalimiz.

So'ngra bug'lanib, osmon sari

intilamiz. Vaqt o'tib, yana

qor-u yomg'ir ko'rinishida

yerga tushamiz. Shu

tariqa, abadiy yashay-

miz, – zavq-shavq bilan

gapirishda davom etdi

birinchi qor parchasi.

– Yo'q, biz bug'la-

nib, tamoman g'o-

yib bo'lamiz, – e'tiroz

bildirdi ikkinchisi.

Axiyri, ular bahslashishdan charchab, bir-birining qo'lini qo'yib yuborishdi va har ikkisi o'zi tanlagan taqdir sari uchib ketdi.

BAJARILMAGAN VA'DA

Qahraton qish. Ayoqli kunlarning birida ko'chada aylanib yurgan o'ziga to'q, badavlat kishi faqir ahvoldagi bir cholni ko'rib qoldi.

– Kun nihoyatda sovuq, ustingiz ham yupun ekan, bu ahvolda qanday o'tiribsiz? – so'radi undan.

– Juda sovuq, lekin men bunga ko'nikib ketganman, boshqa ilojim ham yo'q, – javob qildi qariya.

– Shoshmang, hozir uyga kirib, issiqroq kiyim olib chiqaman, – dedi haligi boy unga rahmi kelib.

Chol quvonib ketdi va uni kutib turishini aytdi. Lekin uyiga kirib ketgan boy boshqa ishlar bilan chalg'ib, uni tamoman unutdi. Faqat tong otgandagina birdaniga keksa otaxon esiga tushdi va tashqariga chiqib, uni izlay boshladi. Biroq kech bo'lgan, qariya sovuqdan jon taslim qilgan edi. U yonida bir maktub qoldirib ketgan ekan. Qalbini vijdon azobi kemira boshlagan haligi kishi qog'ozni qo'liga olib, shosha-pisha o'qiy boshladi: «Ustimda issiq kiyim

bo'lmaganida, sovuqqa qarshi kurashishga o'zimda kuch topib, axiyri, unga ko'nikib qolgandim. Biroq menga yordam berishingizni aytdingiz, men esa bu va'daga ishonib, sovuqqa qarshi turish qobiliyatimni yo'qotdim».

Qissadan hissa: Kimgadir pand berar ekansan, hech qachon so'z berma. Umid inson uchun har narsa. Bergan va'dang sen uchun ahamiyatli bo'lmasligi mumkin, ammo so'zlaringga ishongan odam uchun ular juda muhim.

ENG MAQBUL YECHIM

Qish kunlarining birida qishloqda kuchli qor yog'di. Shogirdlar beligacha qorga botib, bir amallab navbatdagi mashg'ulotga yetib kelishibdi.

Ustoz ularga yuzlanib:

– Ko'rib turganinigizdek, hamma yoqni qor qoplab, yo'llarni ham to'sib qo'ydi. Sizningcha, endi nima qilishimiz kerak? – deb so'rabdi.

Birinchi shogird tilga kiribdi:

– Menimcha, ham-mamiz birgalikda ibodat qilib, havo tezroq isib ketishi va qorlar erib ketishini so'rashimiz lozim.

Ikkinchisi boshqa taklif bildiribdi:

– Yaxshisi, qorning yerga singib ketishini sabr bilan kutish kerak.

Qolgan yigitlar ham birin-ketin shu kabi yechimlarni o'rtaga tashlashibdi.

Ularni diqqat bilan tinglagan ustoz:

– Endi esa meni tinglang, – debdi.

Shogirdlar donishmand anglatmoqchi bo'lgan buyuk hikmatni eshishga hozirlanib, nigohlarini unga qadashibdi. Ustoz ularning hammasiga bir-bir qarab, chuqur nafas olibdi va shunday debdi:

– Qani, tash-

qariga chiqib, qo'lingizga belkurak oling va olg'a!

Qissadan hissa: unutmang, amalda natija beradigan eng maqbul yo'l – harakat qilmoq!

E'TIBORSIZ QOLDIRILGAN IMKONIYATLAR

Uning uchta orzusi bor edi: yuqori maoshli yaxshi ishga kirish, go'zal va oqila qizga uylanish hamda dunyoga mashhur bo'lish.

Qishning ayozli va izg'irinli kunlari. U dong'i ketgan bir kompaniyaga ishga kirish ilinjida suhbatdan o'tish uchun ketardi. Birdan qarshisidan kelayotgan bir qariya yaxmalakda sirpanib, yiqilib tushdi. Bizning qahramonimiz unga bir boqdi-yu, lekin yordam qo'lini uzatmay, shoshgancha yo'lida davom etdi. U suhbatga o'z vaqtida ulgurdi, ammo ishga olinmadi.

Kunlardan birida u tungi shahar bo'ylab sayr qilardi. Ko'chada tomoshalar qo'yuvchi bir guruh artistlar o'z iste'dodini namoyish etayotgan edi. Shunda birdan kimdir uning yelkasidan turti. Yigit o'girilib qaradi-yu, yonida masxaraboz kampir turganini ko'rdi. U bilan suhbat qurgisi kelmadi, jirkanib ortiga o'girildi va uyi tomon ketdi.

Yomg'irli oqshomlardan birida yigit do'stining tug'ilgan kunidan qaytardi. Kun juda og'ir o'tgan bo'lib, u tezroq vanna qabul qilib, yumshoq o'ringa yotishga oshiqayotgandi. Birdan kimningdir yig'layotgan bo'g'iq ovozini eshitib qoldi. O'rta yoshli bir ayol o'rindiqa o'tirgancha dardli ko'zyosh to'kardi. Sovuq kunda egniga yengil kamzul kiygan xotinning qo'lida soyaboni ham yo'q edi. U o'ziga hayron bo'lib boq-qan kishiga firibgarlarning nayrang qurboni bo'lgani va uyidan ayrilganini alam bilan so'zlab berdi. Lekin tezroq hordiq olishni istayotgan yigit vaqti yo'qligini, hech qanday yordam bera olmasligini aytib, ichkariga kirib ketdi.

Oradan yillar o'tib, baxt nima ekanini bilmay qarib qolgan qahramonimiz bir kuni tush ko'ribdi. Tushida farishta shunday debdi:



– Bilasanmi, hayotim juda baxtsiz va ma'nisiz o'tdi. Uchta orzuyim bor edi. Lekin, afsuski, hech biri ro'yobga chiqmadi.

Shunda farishta ham tilga kiribdi:

– Eh, do'stim. Aslida taqdir orzularing amalga oshishi uchun senga bir necha imkoniyat taqdim etgan edi. Sen shunchaki ko'zingni kattaroq ochib, yordam qo'lini uzatishing va mehr ulashishing kerak edi, xolos. Qishning sirpanchiq yo'llarida qarshingda yiqilgan odam esingdami? U o'sha sen shoshayotgan mashhur firmaning bosh direktori edi. Uning mashinasi buzilib qolib, bir bekat piyoda yurishiga to'g'ri kelgandi. Agar unga yordam berganingda, seni omadli ish faoliyati kutayotgandi.

Qari masxaraboz ayol ham yodingdadir? Aslida u grimdagi go'zal bir qiz edi. Ikkingizni baxtli oilaviy hayot kutayotgandi. Lekin sen o'z baxtingdan yuz o'girding.

Sharros yomg'ir yog'ayotgan kuni uying yonida yig'lab o'tirgan nochor ayol esa mashhur yozuvchi edi. Agar uning dardiga quloq tutib, qo'lingdan kelgancha yordam qilganingda, u kitoblardan birini senga bag'ishlab, qilgan yaxshiligini tilga olardi. Bu voqea hikoya qilingan kitob, unga qo'shib sen ham dunyoga tanilgan bo'larding. Hayot yo'lingda sendan faqatgina mehrli, e'tiborli va marhamatli bo'lish talab qilingandi. Ammo sen bee'tiborli bo'lding, do'stim...

Qariya cho'chib uyg'onib ketdi va g'amgin ko'zlarini shiftga tikkancha, og'ir xo'rsindi...

**Sahifa materiallarini
Gulchehra AZIMOVA tayyorladi.**



JINOYAT MUHOKAMASI



Eldan uyalmaganning yo'li egri

Jinoyat o'zidan-o'zi sodir bo'lmaydi. Uning alomatlari ancha avval namoyon bo'ladi. Jinoyat uchun qulay muhit shakllanadi. Bunday muhitning oldini olish, jinoyatga moyil shaxslarning xatti-harakatini to'g'ri tomonga yo'naltirishda mahallaning o'rni beqiyos. Faqat jamoatchilik nazorati va sa'y-harakati bilangina jinoyatchilikni jilovlash mumkin. Boyovut tumani «Boboyurt» mahallasida bo'lib o'tgan jinoyat muhokamasida aynan shunday fikrlar ilgari surildi.

Mahallada qariyb ikki yuzdan ortiq kishi mehnat qiladigan «Shodlik – Sayxun g'isht» MCHJ korxonasi faoliyat ko'rsatadi. Mahallaning ellik nafardan ortiq yigitlari shu yerda ishlab, ro'zg'or tebratadi. 1982-yilda tug'ilgan Erali Azizov (ism-shariflar o'zgartirildi) ulardan biri. Oilali, bir necha farzandi bo'lishiga qaramay, egri yo'lni tanlaganlardan. Uning firibgarlikka oid rejasi pishib yetilayotganidan ko'pchilik boxabar edi. Gap shundaki, «Shodlik – Sayxun g'isht» MCHJ bankdan katta miqdorda kredit olgandi. Lekin ishlab chiqarish va mahsulotlarni realizatsiya qilishdagi muammolar sababli korxona kreditni vaqtida to'lay olmaydi. Natijada mol-mulka taqiy solinib, auksionga qo'yiladi. Erali Azizov bundan foydalanib qolishni mo'ljallaydi. U sotuvdagi mulklar orasidagi traktor va bir qancha ehtiyot qismlarni sotib olishga muvaffaq bo'ladi. Qariyb yetmish million so'mlik mulkni olgach, pullarni to'lash, «El oldida nima degan odam bo'laman», degan andisha uning xayoliga ham kelmaydi. Atrofdagilar esa uni tartibga chaqirishmaydi. Bu

orada ishga Majburiy ijro bo'limi aralashadi. Natija bo'lavermagach, unga nisbatan firibgarlikka oid jinoyat ishi qo'zg'atiladi.

Jinoyat muhokamasi qizg'in tus oldi. Boyovut tumani hokimi o'rinbosari Avazbek Allashukurov jinoyat muhitining oldini olishda mahalla ahlining mas'uliyati yetishmaganligini qayd etdi.

Mahalla raisi Shavkat Mustafokulov esa atrofdagilar bir-biriga nisbatan loqayd bo'lib borayotgani, yengil yo'l bilan mol-mulk o'ttirishga qiziqish ortganini afsus bilan ta'kidladi. Mahalla ahlini jipslashishga, egri yo'ldan ketayotgan shaxslarni tartibga solishga chaqirdi.

Tuman IIB HPB «Boboyurt» mahallasi profilaktika inspektori, mayor Erkin Hasanov ushbu shaxsni bir necha bor ogohlantirganini qayd etib, bu borada jamoatchilik nazorati yetishmaganini bildirdi. Muhokama yakunida jinoyatlarning oldini olishga oid tegishli rejalar belgilandi.

Abdurahmon MUSTAFOQULOV,
o'z muxbirimiz.

Sirdaryo viloyati.

QILMISH – QIDIRMISH

MAHALLADOSHLARINI
TUNAGAN ZO'RAVON

Xivalik Karim (ism-shariflar o'zgartirildi) ish izlab Qozog'istonga bordi. Ammo u yerdagi og'ir mehnat, yashash sharoiti unga yoqmadi. Shu bois yengilroq ish izlay boshladi. Ko'nglidagi ishini topolmagach, Xorazmga qaytishga majbur bo'ldi.

Og'ir mehnatga bo'yni yor bermaydigan Karim ko'p o'tmay, bu yerda ham pulsiz qiynalib qoldi. Shundan so'ng ishlamasdan boylik o'ttirish yo'llarini izlay boshladi. Bunday qing'ir ishni guvoh va sheriklarsiz yolg'iz amalga oshirish uning uchun bexavotirdek tuyuldi. Shu tariqa, mahallama-mahalla yurib, «o'lja» izlay boshladi. Kun bo'yi sanqib yurgan Karim mahalladoshi Nigoraning uyi oldidan o'tayotib, uning yolg'iz yashayotgani xayoliga kelib qoldi. Bir chekkada o'tirib, xonadonni kuzata boshladi. Oradan biror soat o'tgach, Nigora uyidan chiqib, telefonida kim bilandir gaplasha boshladi. Ayolning qo'lidagi qimmatbaho telefon Karimning e'tiborini tortdi.

U shu kuni tungi soat taxminan 4:30 larda bog' tomondagi eshik orqali xonadonga kirib, Nigoraning narxi 2 million 500 ming so'mlik telefonini o'g'irlab ketdi. Rejasi osongina amalga oshganidan xursand bo'lib, «o'lja»ni arzon narxda sotib yubordi va pulini o'z ehtiyojiga ishlata boshladi. Solim-solim tuz chidamas, deganlaridek, oradan 15 kun o'tdi yo o'tmadi, cho'ntaklari bo'shab qoldi.

Karim o'zining jinoiy harakatlarini davom qildirib, yolg'iz yashovchi 90 yashar qo'shnisi Salima ayaning xonadonini ko'z ostiga oldi. Kampirning pensiya pulini olganidan xabar topishi bilan tungi soat 03:30 larda mast holda Salima ayaning yashash xonadoniga kirdi. Sharpa tovushini eshitgan onaxon sergak tortib, uyiga kim kirganini so'radi. Kutilmagan bu holatdan sarosimaga tushgan talonchi ojiz keksa ayolning og'zini qo'li bilan berkitib, zo'rlik ishlatib, barmog'idagi tilla uzugini hamda

800 ming so'm pulini olib, ko'zdan g'oyib bo'ldi. Ertasi kuni jabrlanuvchi bo'lgan voqea yuzasidan tuman Ichki ishlar bo'limiga xabar berdi.

Hodisa joyiga yetib kelgan tergov-tezkor guruhi xodimlari jinoyat tafsiloti bilan tanishgach, bu yerda ham Nigoraning xonadonidagi o'g'irlik bilan o'xshash holat sodir etilganiga e'tibor qaratishdi. Xonadonga kelib-ketuvchilar, gumondorlar, jinoyat sodir qilishga moyil bo'lgan shaxslar bilan alohida suhbatlashib chiqildi. Ekspert-kriminalist eshik va deraza romlari, mebel jihozlari va uy-ro'zg'or buyumlarini sinchkovlik bilan ko'zdan kechirib, qoldirilgan qo'l-barmoq izlaridan namunalari oldi va ularni viloyat IIB Ekspert-kriminalistika markaziga yubordi. Ekspertlar izlarni tizim bazasida mavjud bo'lgan qo'l-barmoq izlari bilan solishtirib chiqishdi. Afsuski, hodisa joyidan olingan izlar tizim bazasida yo'q edi. Shundan so'ng izquvarlar g'ayri-ijtimoiy xulq-atvoriga ega bo'lgan hamda jinoyat sodir qilishga moyil shaxslar bilan suhbatlashishdi. Natijada Karim gumon qilinuvchi sifatida Ichki ishlar bo'limiga olib kelindi.

Dastlabki so'roq payti u turli bahonalarni o'ylab topib, suvdan quruq chiqmoqchi bo'ldi. Ammo bir-birini inkor etuvchi javoblar Karimni shoshiltirib qo'ydi va qilmishini tan olishdan boshqa chora topolmadi. Shu tariqa, zo'ravonlik, bosqinchilik bilan shug'ullanib, o'zgalar mulkini qo'lga kiritgan Karimning jinoiy faoliyatiga chek qo'yildi.

Jalol BOBOJONOV,
mayor.

Xorazm viloyati.

OGOHLIK – DAVR TALABI

«PAQ-PAQ»LAR YANA BOSHLANADI(MI)?

Har yili Yangi yil bayrami arafasida ko'chalarda yoshlar tomonidan pirotexnika vositalarining bekorchilikdan «ermak» qilinayotganligiga guvoh bo'lamiz. Aslida bu matohlar kuchli ovoz chiqarib, odamlar asabiga tegishdan boshqasiga yaramaydi. Bu yil esa sabri chidamagan ayrim o'spirinlar bayramni ham kutmasdan, uning savdosini boshlab yuborishgan.

Yaqinda IIV Transport va turizm obyektlarida xavfsizlikni ta'minlash departamenti Tezkor qidiruv boshqarmasiga poytaxtimizning Olmazor tumani «Xon Chorbog'» mahallasida istiqomat qiluvchi T.Sh. tomonidan pirotexnika vositalari sotilayotganligi haqida xabar kelib tushdi.

Mazkur holat yuzasidan soha xodimlari ishtirokida tezkor-profilaktik tadbir o'tkazilganida, ushbu ma'lumot o'z tasdig'ini topadi. Ya'ni, T.Sh. 60 dona «Treniya» hamda 5 dona



«7 SHOTS» nomli pirotexnika mahsulotlarini 1 million so'mga sotayotgan vaqtida ashyoviy dalillar bilan qo'lga olindi. Uning ota-onasiga farzandini nazoratsiz qoldirib, ana shunday xatti-harakatlarni amalga oshirishga sababchi bo'lganligi uchun qonuniy chora ko'rildi.



Yaxshiyamki, osoyishtaligimiz posbonlarining hushyorligi sababli, mazkur holatning oldi olinib, uning natijasida kelib chiqishi mumkin bo'lgan qanchadan-qancha ko'ngilsizliklarning oldi olindi. Biroq ozgina ogohlik qo'ldan boy berilganda bormi, nimalar bo'lishi ko'z oldingizdan o'tayotgan bo'lsa ajabmas...

Shu bois, hurmatli otanalardan shuni iltimos qilib qolardikki, o'z jigarbandlarining tarbiyasiga yanada qattiqroq turib, ularning kelajagiga befarq bo'lmaslik, o'z qo'lingizda... Chunki barchamizning ertangi kunimiz o'zimiz parvarish qilib kelayotgan shu yoshlar qo'lida...

Dilmurod TURG'UNOV,
podpolkovnik.



SALOMATLIK SABOQLARI

SHOLG'OMJONDAN AYLANAY...

Sholg'omni ko'pchilik, ayniqsa, bolalar xush ko'rmaydi... Ammo u foydasi va xushxo'rliigi jihatidan kartoshkadan ancha ustun. Chunki sholg'om tabiiy darmondoridir. Uni qand kasali bilan kasallanganlarga ham tavsiya etishadi.

– Qaynatib pishirilgan sholg'om shamollashga qarshi yaxshi vosita.

– Uni go'sht bilan pishirib, iste'mol qilinsa, ko'krak va tomoq yumshashiga erishish mumkin.

– Sholg'omdan universal dori tayyorlash uchun 2 oshqoshiq maydalangan sholg'om ustiga 1 stakan qaynoq suv solib, 15 daqiqa davomida qaynatiladi. Un-



dan har kuni chorak stakan dan ichib turiladi. Bunday qaynatmaning bir stakani uyqu oldidan iste'mol qilinsa, tinchlantiruvchi dori vazifasini o'taydi. U bilan og'iz g'arg'ara qilinsa, tomoq va tish og'rig'idan xalos bo'lish mumkin.

– Sholg'om pishirilib yoxud xomligicha iste'mol qilinsa, ko'zga foyda, nafas yo'lini yaxshilaydi, yurak

bezovtaligida ajoyib malham bo'la oladi.

– Sholg'omning asal bilan aralashtirilgan sharbati yo'talga barham beradi. Harorat ko'tarilganida, tomoq og'riganda naf keltiradi.

– Pishirilgan sholg'omning bo'tqasi bo'g'imlarga tuz yig'ilganida, og'riqdan xalos etadi. Uni og'rigan joyga qo'yib, bog'lab qo'yish kifoya.

TURP TURPNI TURTIB TURIBDI

Turp yurtimizda keng tarqalgan, qolaversa, inson salomatligi uchun eng foydali sabzavotlardan biri hisoblanadi.

Turpning tarkibida 90 foiz suv, shakar, kletchatka, efir moylari, darmondorilar, kislotalar, natriy tuzi, kaliy, kalsiy, magniy, fosfor, temir, aminokislotalar, fermentlar va boshqa turdagi moddalar mavjud. Ayniqsa, uning tarkibidagi fitonsid va bakteritsid moddalar xususiyatiga ko'ra o'ta foydalidir.

Turpning suvi qadimdan ichak faoliyatini yaxshilash, soch to'larini mustahkamlash maqsadida qo'llanib kelingan. Shuningdek, turp ateroskleroz shishlarda, tanosil a'zolari kasalliklarini davolashda ham juda yaxshi yordam beradi.

Xalq tabobatida turp bilan asal aralashmasi turli jarohat va yaralarga malham hisoblanadi. Qaynatib pishirilgan turp



yo'talga davo bo'ladi. U shamollashga qarshi, siydik haydovchi, balg'am ko'chiruvchi, tomoq va o'pka kasalliklariga davo sifatida tavsiya etiladi. Shuningdek, o't pufagining yallig'lanishi va tosh kasalliklarini davolashda turp sharbatini har kuni iste'mol qilib turish salomatlik uchun juda foydalidir.

KIROVI
KAVRAK

Kavrakning foydali xususiyatlari bizga avvaldan ma'lum bo'lib, Ibn Sino va Beruniy kabi allomalari-miz o'z asarlarida turli kasalliklarni davolashda undan tayyorlangan dori vositalari va parhez taomlarni qo'llashni tavsiya qilishgan.

Kavrakning shifobaxsh xususiyatlari ko'pligi sababli, u tibbiy maqsadlarda keng qo'llaniladi. Oshqozon-ichak yo'lini shlaklar va gijjalardan tozalashdan tashqari, boshqa kasalliklarni davolashda ham juda foydali hisoblanadi. Xususan, angina, bronxit va nafas a'zolari shamollashi bilan kechuvchi boshqa kasalliklarni misol tariqasida keltirish mumkin. Antiseptik va og'riq qoldiruvchi xususiyati borligi uchun nafas yo'llarini mikroblardan tozalashda eritmasi bilan og'iz chayiladi. Shuningdek, eritmasi og'izdan yoqimsiz hid kelishini yo'qotadi, oz miqdorda ichish esa ovoz bo'g'ilishiga davo bo'ladi.

Ko'z kasalliklarida kataraktaning boshlang'ich bosqichlarini samarali davolashda, shuningdek, hasharotlar chaqqanda zahar ta'sirini kamaytirishda qo'llash mumkin.

Buyrakdan tosh tushirish, psoriasis, ekzema, terini hamda jigarni tozalash va boshqa kasalliklarni davolash xususiyatlari Ibn Sino asarlarida alohida ko'rsatib o'tilgan.

Kavrak o'simligi tomir tortishi, o'pka sili, o'lat, zaxm, ko'kyo'tal kabi xastaliklarni davolovchi dorivor o'simlik hisoblanishi bilan birga, insonga quvvat beruvchi, energetik balansni va tonusni tiklovchi vosita ham hisoblandi. Shu bois tajribali tabiblar va shifokorlar kavrakni hayotbaxsh jenshendan ustun hisoblashgan.

Gulnoza TURG'UNBOYEVA tayyorladi.



ОТЧЕГО ПОЯВЛЯЕТСЯ ПЕРХОТЬ

Причинами возникновения перхоти могут быть: неправильный уход за волосами, пересушивание кожи головы, недостаток витаминов группы А и группы В, нервное перенапряжение, нарушение желудочно-кишечного тракта, психоэмоциональные стрессовые ситуации, заболевания эндокринной системы, а также грибковые заболевания.

Как избавиться

Для лечения перхоти преимущественно используются средства с противогрибковым, противовоспалительным и антибактериальным действием. Обычно такие продукты содержат кетоконазол, пиритион цинка, миконазол, климбазол, клотримазол. Хорошо себя зарекомендовали шампуни и мази с дисульфидом селена.

Что нужно есть, чтобы не было перхоти?

Изменить рацион питания: исключить острые и жирные блюда, сладкое и мучное. Заменить их свежими фруктами, овощами, крупами и другими продуктами, насыщенными полезными жирами и кислотами. Обогащать рацион витаминами группы А, С и В.



Польза тыквенного сока:

улучшение обменного процесса;
устранение из организма холестерина;
улучшение тока кровяной жидкости;
восполнение недостающих минералов и витаминов;
очищение организма от токсических элементов, вредных веществ;
улучшение перистальтики кишечника;
укрепление мышечной ткани сердца;
устранение стрессового состояния;
устранение бессонницы, улучшение сна;
улучшение состояния ногтей и волос.

Помимо перечисленного, тыквенный сок в домашних условиях является мочегонным, противовоспалительным, глистогонным средством.



Как приготовить тыквенный сок?

Очистите плод от волокон с семечками. Нарежьте его средними кусочками и почистите от кожуры. Выложите в кастрюлю и залейте водой. Поставьте емкость на средний огонь на 40 минут. После того как снимете тыкву с огня, растолките мякоть толкушкой или пюрируйте блендером. Добавьте в кашу сахарный песок по желанию и сок 1/2 лимона. Тщательно перемешайте. Перелейте кашу в другую емкость при помощи ситечка, растирая оставшиеся кусочки ложкой. Поставьте полученный сок на средний огонь и доведите до кипения. Убавьте температуру до минимума и продержите емкость на огне еще 5 минут.

Перед применением проконсультируйтесь с врачом.



В Караульных войсках

ПРОЯВИЛИ БОЕВУЮ ВЫУЧКУ

Во исполнение Указа Президента «О мерах по широкому внедрению здорового образа жизни и дальнейшему развитию массового спорта» и согласно соответствующему приказу командующего Караульными войсками во взводе контролеров первого батальона воинской части № 7534 проведены соревнования по боевой и профессиональной подготовке.



В турнире участвовал личный состав взвода, сформированный из женщин-военнослужащих. Бойцы, в том числе женщины-военнослужащие, выполняют ответственные задачи по обеспечению охраны категорированных объектов.

Соревнования прошли в командно-полевом учебном центре. Перед участницами стояла цель – проявить знания и умения, боевую и физическую выучку.

По итогам состязаний были определены победители.

Выступивший на церемонии награждения командующий Караульными войсками полковник Хасан Ботиров поблагодарил всех участников за проявленные мастерство и усердие. Победителям вручены денежные премии, дипломы.

Состоялось также выступление военного оркестра и ансамбля, в исполнении которых прозвучали популярные песни, строевые и парадные марши.

Бахром САМАНОВ,
подполковник.



MUNAJJIMLAR BASHORATI (18 – 24-dekabr)



Qo'y. Kelayotgan hafta yangi narsalarni o'rganishga sabab bo'ladi. Bu davrda moliyaviy muammolarni imkon qadar hal qilishga harakat qiling. Barcha g'oyalarigiz hayotga tatbiq etiladi, asosiysi, tavakkalchilikni talab qiladigan ishlarga aralashmang.



Buzoq. Sizni hodisalarga boy hafta kutmoqda. Dushanba kuni foydali narsaga pul tikish haqida o'ylab ko'ring, ehtimol, bu bilan moliyaviy holatigizni yaxshilab olasiz. Hafta boshida ish joyingizda tekshiruv tashkil etilishi mumkin. Bundan aslo xavotirga tushib, qayg'urmang.



Egizaklar. Bu hafta moliyaviy masalada tejamkor bo'lishga harakat qiling, pullarni birinchi uchragan ish uchun behuda sarflamang. Chorshanba kuni yangi tanishlar orttirilishi, foydali aloqalar o'rnatilishi kutilmoqda. Oilaviy muammolarni hal etish harakatini haftaning ikkinchi yarmiga qoldirganingiz ma'qul.



Qisqichbaqa. Haftaning ikkinchi yarmida tarang asablarni bo'shashtiring, ijodiy rejalarini amalga oshirish haqida o'ylang. Hafta so'ngida oila davrasida maroqli hordiq chiqaring. Bu davr ish munosabatlari mustahkamlash uchun qulay bo'lib, o'z rejalarigiz borasida e'tiborli tanishlar bilan maslahat qilishingiz mumkin.



Arslon. Bu hafta kuch-g'ayratingiz keragidan ortiq bo'ladi. Lekin atrofdagi nafaqat raqiblar, balki hamkasblar va do'stlardan ham ehtiyot bo'ling. Shu kunlarda katta pul mablag'i kelib tushishi mumkin, lekin uni o'ngi so'lga behuda «sochmang». Haftaning so'nggi kunlarini o'zingizga, sog'liqni mustahkamlashga va miriqib dam olishga sarflang.



Parizod. Hafta boshida do'stlarga sizning yordamingiz zarur bo'lib qolishi mumkin. Seshanbada vaqtingizni maishiy muammolarni hal etishga bag'ishlang. Chorshanba uchun rejalashtirilgan xizmat safarlari omadli kechadi, juma kuni esa bunday safarlardan uzoq turgan ma'qul. Dam olish kunlari uzoqdan qarindosh va yaqinlaringiz tashrifi kutilmoqda.



Tarozi. Bu davrda ko'proq ijodiy ishlar bilan shug'ullanasiz, bunda seshanba eng omadli kun hisoblanadi. Gap foydali bitimlar va istiqbolli shartnomalar haqida ketmoqda. O'z iste'dod va qobiliyatlarigizni ko'rsatishdan cho'chimang. Juma kuni sevimli ish bilan shug'ullanish imkoniyatiga ega bo'lasiz.



Chayon. Hafta davomida butun kuch va shijoatni to'plab, o'zingizga bo'lgan ishonch darajasini yuqori ushang. Seshanba yangi shartnoma va bitimlar tuzish uchun omadli kun – sarflangan mablag' katta foyda keltiradi. Lekin yaxshi tanish bo'lmagan odamlar bilan o'z rejalarigizni o'rtoqlashmang.



O'qotar. Jamoaviy faoliyatda doim ishtirok eting, sizdagi faollik va shjoat ko'pchilikka ma'qul keladi. Ushbu hafta sizga uzoq kutilgan sokin hayotni tufta etadi. Osoyishtalik va farog'at uyg'unligini buzmaslik uchun har qanday vaziyatda o'zingizni tutib, og'irroq bo'lishga harakat qiling. Bu davr yangi rejalar tuzish va ularni amalga oshirish yo'llarini izlash uchun juda qulay.



Tog' echkisi. Sizni qiziqarli va yodda qoluvchi voqealarga boy hafta kutmoqda. Ammo shubhali va qaltis moliyaviy ishlarga aralashmaslikka harakat qilib, mug'ombir tanishlar bilan muloqotni uzing. Dushanba kuni ba'zi hamkasblar bilan munosabatlar iziga tushadi, asosiysi, chegarani saqlab, betakalluflikdan yiroq bo'ling.



Qovg'a. Kirib kelayotgan haftada sizni yangi taassurotlar va yorqin his-tuyg'ular kutmoqda. Salomatlikka jiddiy e'tibor qaratib, o'zingizga biron dam bering va kelgusi uzoq muddat uchun kuch-quvvat yig'ing – bu sizga hozir juda zarur. Oila a'zolarigizga ko'proq vaqt ajratishga harakat qiling.



Baliq. Ish joyingizda kutilmagan va asosiy o'zgarishlar yuz beradi. Bu hafta qadrdonlar va do'stlar ko'magi, mehr-muhabbatidan to'liq bahramand bo'lasiz. Ushbu g'amxo'rlik ish faoliyatida zimmanigizga yuklatilgan murakkab vazifalarning uddasidan chiqishga yordam beradi. Moliyaviy jihatdan ham muvaffaqiyat siz tomonda bo'ladi.

IIV Malaka oshirish instituti rahbariyati va shaxsiy tarkibi institut jismoniy tayyorgarlik sikli katta o'qituvchisi, mayor Shokir Albekovga otasi

Adilbek ALBEKOVning
vafot etganligi munosabati bilan hamdardlik izhor etadi.



www.postda.uz



t.me/postdarasmiy



www.facebook.com/postdauz



www.instagram.com/postda_uz

HAFTA QAHRAMONLARI

IZG'IRINDA MEHR ULASHIB

Yurtimizda qishning ikkinchi o'n kunligi havo haroratining keskin tushib ketishi barobarida kunlar sovib, borliqni qor qopladi. Biroq qasamyodiga sodiq qolgan ichki ishlar organlari xodimlari har qanday ob-havo sharoitida el

Viloyat IIB JXX JTSB PPX bataloni safdor xodimi Javlon G'aybullayev fuqarolar xavfsizligi, jamoat tartibi va osoyishtaligini saqlashda alohida jonbozlik ko'rsatmoqda. U ko'cha, xiyobon va chorrahalarda harakatlanayotgan yosh bolali va keksa insonlarga ko'maklashib, ularning duosini olmoqda.

osoyishtaligi yo'lida o'z xizmat vazifalarini sidqidildan bajarishmoqda.

Qishning izg'irinli kunlari talafotsiz o'tishi uchun o'z halovatidan kechib, xalq uchun xizmat qilayotgan xodimlarga balli, deymiz!

SIRDARYO VILOYATI

NAMANGAN VILOYATI



Viloyat IIB JXX YHXB va PPXB xodimlari o'zgalar ko'magiga muhtoj fuqarolarga ko'maklashmoqda.



QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI

Qoraqalpog'iston Respublikasi IIV Jamoat xavfsizligi xizmati JTSB PPXB xodimlari izg'irinli kunlarda ko'chalarni qor va muzlardan tozalab, transport va fuqarolarning xavfsiz harakatlanishiga hissa qo'shayotgan obodonlashtirish xizmati ishchilariga issiq choy va qo'lqoplar tarqatishmoqda.

MUASSIS:

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
ICHKI ISHLAR VAZIRLIGI

Bosh muharrir –

polkovnik
Bernora SADIKOVA

Bosh muharrir o'rinbosarlari –

mayor Azizjon FAYZIYEV
kapitan Aziza BOHODIROVA

Mas'ul kotiblar –

Jahongir SHAROFBOYEV
Erkin SATTOROV

Navbatchi –

Temir QURBONOV
Radik TUMPAROV

Sahifalovchilar –

Zokir BOLTAYEV
Ilhom JUMANOV
Akbar BOLTAYEV

Fotomuxbirlar –

Abu KENJAYEV
Ikrom HASANOV

TELEFONLAR:

71-231-33-88;

Faks: 71-231-40-05.

Obuna masalalari bo'yicha:

71-231-38-74;

97-420-89-24

Web-site: www.postda.uz

E-mail: info@postda.uz

ISSN 2010-5355



Tahririyat hisob raqami
h/r 23402000300100001010.

Bank kodi 00014.

O'zbekiston Respublikasi
Iqtisodiyot va moliya
vazirligi g'aznachiligi.

Shaxsiy h/v
470010860262877031101179001
STIR 200637499.

Tahririyatga kelgan qo'l-
yozma va suratlar egasiga
qaytarilmaydi.

Nashrimizdan ko'chirib bosil-
ganda manba ko'rsatilishi shart.

Gazeta tahririyat kompyuter
markazida terildi va sahifalandi.

«Kolorpak» MCHJ
bosmaxonasida chop etildi.
Korxona manzili: 100206
Yunusobod tumani,
Yangishahar ko'chasi 1^a-uy.

Gazeta O'zbekiston Respublikasi
Prezidenti Administratsiyasi
huzuridagi Axborot va ommaviy
kommunikatsiyalar agentligi
tomonidan 2020-yil 13-yanvarda
0120-raqam bilan ro'yxatga
olangan.

Buyurtma №3799.

Bosilish – ofset usulida.

Bichimi – A3. Hajmi – 6 bosma
taboq. 50436 nusxada chop etildi.

Obuna raqamlari:

Yakka tartibda – 180.

Tashkilotlar uchun – 366.

Bosishga topshirish vaqti – 22.00.

Bosishga topshirildi – 21.00.

Sotuvda kelishilgan narxda.

MANZILIMIZ:

100070, Toshkent shahri,
Shota Rustaveli 1-berk
ko'chasi 9-uy.



www.postda.uz



t.me/postdarasmiy



www.facebook.com/postdauz



[www.instagram](https://www.instagram.com/postdauz)